

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

HISOB VA AUDIT FAKULTETI

“AUDIT” KAFEDRASI

AZIMOV BAHODIR NURULLAYEVICH

**«AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KORPORATIV BOSHQARUVIDA
BUXGALTERIYA HISOBINI VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH»**

5340900 -“Buxgalteriya hisobi va audit”- ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr
darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY IshI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Audit»kafedrasi mudiri

i.f.n., dots.,I.Qo’ziev

«__»_____2016 y.

Ilmiy rahbar: k.o’q. O.Qo`shmatov

«__»_____2016 y.

TOSHKENT - 2016

Men, _____XBA-70 akademguruh talabasi ushbu

Talabaning F.I.Sh.

BMI ni mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

Talabaning F.I.Sh. va imzosi, sana

MUNDARIJA

Kirish	3
I-bob. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditning nazariy hamda uslubiy asoslari	6
1.1. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditning nazariy asoslari	6
1.2. Korporativ boshqaruv shaklidagi korxonalarda buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etishning ustivor jihatlari	21
II-bob. Boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditning o'ri hamda uning amaliyotdagi holati	33
2.1. Buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish va uning amaliyotdagi holati	33
2.2. Korporativ boshqaruv jarayonida moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobi xususiyatlarining qiyosiy tahlili	38
2.3. Korporativ boshqaruv shaklidagi korxonalarda ichki auditning ahamiyati va uni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari	43
III-bob. Korporativ boshqaruv sharoitida buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish	55
3.1. Korporativ boshqaruv tizimidagi korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish	55
3.2. Mamlakat iqtisodiyotini boshqarishda auditni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari	59
Xulosa	64
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	67

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Amalga oshirilayotgan izchil islohotlar chuqurlashuvini aniq axborotlar manbaisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Mamlakatimiz xo'jalik boshqaruvi tizimida, shu jumladan, buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatidagi mavjud qarashlar iqtisodiyotni erkinlashuvi talablariga to'liq javob bermayapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov: "...2015 yilda korporativ boshqaruv tizimidagi printsiplari va yondashuvlarni tubdan o'zgartirishimiz uning haqiqiy bozor xususiyatlariga ega bo'lishini ta'minlash va konservativ qarashlardan xalos bo'lishida katta hissa bo'ldi. Barcha aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati to'liq inventarizatsiyadan o'tkazildi, natijada 462 ta jamiyatni yoki ularning 43 foizini tugatish yoki boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga o'zgartirish to'g'risida qarorlar qabul qilindi. Korxonalarni korporativ boshqarish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani o'rganish asosida aksiyadorlik jamiyatlarining yangi namunaviy tuzilmasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Shu tariqa, zamonaviy korporativ boshqaruv tizimi talablarini inobatga olgan holda, Lavozim va kasblarning yangi klassifikatori ishlab chiqildi va tasdiqlandi, unga bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan 566 ta yangi toifa kiritildi. Ana shu klassifikator asosida rahbarlar tarkibi attestatsiyadan o'tkazildi. Rahbar kadrlarning korporativ boshqaruvning zamonaviy usul va printsiplari, menejment va marketing bo'yicha bilimlarini baholash ushbu sinovning asosiy maqsadi qilib qo'yildi. Uning natijalariga ko'ra, attestatsiya qilingan 721 nafar rahbar xodimning yarmi – 49 foizi attestatsiyadan o'tgan bo'lsa, ularning har uchinchisi attestatsiyadan shartli ravishda o'tkazilgan, 20 foizi yoki har beshinchi rahbar esa egallab turgan lavozimiga loyiq emas, deb topilgan¹."– deb ta'kidlab o'tganlar. Iqtisodiyotda islohotlarni chuqurlashuv bosqichida xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'zining har bir so'mini tejab-tergab sarf qilishi, imkoni boricha kam xarajat evaziga ko'proq foyda

¹ Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berishdir" T.: "O'zbekiston" 2016 y., 12 bet.

olib ishlash orqali xodimlarining moddiy manfaatdorligini ta'minlashga harakat qilmog'i lozim.

Shuningdek, korporativ boshqaruv tizimidagi mavjud korxonalarining buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatida o'z echimini kutayotgan qator muammolarni bartaraf etish, ularni nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Bular, birinchidan, buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyati bo'yicha qonun va normativ-hujjatlarining ishlab chiqarish amaliyotida talab darajasida qo'llanilmayotganligi; ikkinchidan, korporativ boshqaruv tizimidagi korxonalarda ichki auditni tashkil qilishning uslubiy jihatlari etarlicha chuqur tadqiq qilinmaganligi; uchinchidan, ma'muriy-boshqaruv xarajatlari tarkibining buxgalteriya hisobini yuritishning mavjud holatiga to'la javob bera olmasligi; to'rtinchidan, korxonalar boshqaruv apparati faoliyati va ularga qilinadigan xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarini aniqlash, uni baholash uslubiyati kabi holatlar ishlab chiqilmaganligidir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi O'zbekiston iqtisodiyotida korporativ boshqaruv shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korporativ boshqaruv tizimining zarurligi, ularda buxgalteriya hisobi yuritish va auditning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish va uni amal qilish mexanizmi mohiyatini ochib berish;

- buxgalteriya hisobi va audit tashkil etilishi holatini baholash va ularning huquqiy institutsional asoslarini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

- korporativ boshqaruv tizimi rivojlanishida ichki audit xizmatini tashkil etishning zarurligini asoslash;

- korporativ boshqaruv shaklidagi yirik sanoat korxonalarining kichik biznes sub'ektlari bilan kooperatsiya aloqalarini takomillashtirish yo'llari va ularda hisob siyosatini yuritishni tadqiq etish;

- korxonalaridagi ma'muriy xarajatlar tarkibiga aniqlik kiritish va ularni hisobga olishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish;

- korporativ boshqaruv tizimidagi korxonalarda buxgalteriya hisobi va auditni yangi axborot texnologiyalari asosida takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi, audit va audit xizmatlari bozori.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmui.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati sifatida horijlik va o'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish va takomillashtirish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari, ushbu masalaga oid O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident I.A.Karimovning farmonlari, asarlari hamda ko'rsatmalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Moliya Vazirligining audit uslubiyotiga oid me'yoriy hujjatlari, auditorlik faoliyati milliy standartlaridan foydalanildi.

BMI tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ish kirish qismi, mazmunan bog'langan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatiiborat.

I-bob. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditning nazariy asoslari

1.1. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditning nazariy asoslari

Bugungi kunda biznesni yuritishning korporativ shakli, ya'ni korporativ boshqaruv iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Ular iqtisodiyning ajralmas elementi hisoblanadi, ularda korporativ boshqaruv mamlakat raqobatbardoshligining asosi va iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili ekanligi tan olingan. Shuning uchun samarali korporativ boshqaruv tizimini yaratish masalalari eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolgan. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv muammosi nafaqat iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, balki O'zbekiston kabi rivojlanaётgan mamlakatlar uchun ham dolzarb hisoblanadi. Binobarin, mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov: "Korporativ boshqaruv tizimidagi printsiplarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jaraenlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy e'tiborni talab qiladi²" deb ta'kidlab, respublikada korporativ boshqaruv tizimini isloh qilishni 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning to'rtinchi muhim ustuvor yo'nalishi sifatida belgiladilar. Shu o'rinda korporativ boshqaruvning samarali rivojlanishiga erishish uning asl mohiyatini chuqur anglash va tushunishni, uning ilmiy soha sifatida shakllanishiga imkon bergan ilmiy-nazariy endashuvlarini tadqiq qilishni taqozo etadi. Shu bois, ushbu tahlil, analiz va sintez, klassifikatsiya, tizimli va kompleks

2

Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jaraenlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, №11 (6194), 2015 yil 17 yanvar.

èndashuv kabi ilmiy tadqiqot usullari asosida korporativ boshqaruvning mohiyatini nazariy jihatdan ochishni va metodologik jihatdan rivojlantirishni lozim topdik.

Korporativ boshqaruvga oid ilmiy-nazariy èndashuvlarning shakllanishi korporatsiyalarning rivojlanib borishi bilan birga sodir bo'lgan. Korporativ boshqaruv nazariyasiga bir qancha èndashuvlar ajratiladi: bir tomondan, korporativ boshqaruv nazariyasi iqtisodiy nazariyalar evolyutsiyasi bo'ylab rivojlanib borsa, ikkinchi tomondan, korporativ boshqaruv nazariyalarining evolyutsiyasi korporativ munosabatlarning asosiy ishtirokchilari, ya'ni aktsiyador va menejerlar o'rtasida yuzaga keladigan muammolarni echishga doir kontseptsiyalar rivojlanishi bilan tenglashtiriladi.

Respublikamiz istiqloлга erishganidan so'ng mamlakatimizda mustabid tuzumdan meros bo'lib qolgan boshqaruvning ma'muriy- buyruqbozlik uslubidan voz kechib, xalqimizning boy ma'naviyati va an'alariga tayangan holda, iqtisodiyotning bozor munosabatlariga tadrijiy yo'l bilan bosqichma-bosqich o'tish modeli yaratildi va hozirga qadar hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan yagona markazlashgan davlat boshqaruv tizimi hukm surgan. Bu tizimda boshqaruv barcha pog'onalarda quyidan yuqoriga qarab bo'ysundirilishga, hamma masalalar yuqorida, markazdan turib hal etilishiga, buyruqlarning bajarilishi esa boshqaruvning quyi bo'g'inidan yuqori bo'g'ini idoralariga etkazib berilishiga, asosan hisobotlar uchun ishlanishi va qilingan ishlar bo'yicha hisobotlarning o'z vaqtida tekshirib turilishiga asoslangan edi.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin o'tgan tarixan qisqa muddat ichida bozor tamoyillarini iqtisodiyotga joriy etish borasida qator ijobiy yutuqlarga erishildi. Ma'muriy, rejali iqtisodiyotdan erkin bozor munosabatlariga o'tilishi bilan mulkchilik shakllarining xususiyati, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tarkibiy tuzilmalari, ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning shakllari o'zgardi, tadbirkorlikning barcha qatlamlarida moddiy, moliyaviy va umuman xo'jalik faoliyati natijalaridan manfaatdorlik darajasi ham o'zgardi. Amalga

oshirilayotgan o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonining eng muhim yo'nalishlarini tanqidiy ko'z bilan baholar ekan, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shunday deydi: “bizdagi eskicha qarash ildizlari, eng avvalo, amaldagi boshqaruv tizimiga borib taqaladi. Hozirgi kunda barcha darajadagi mavjud boshqaruv tizimi olib borilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlar yo'lida katta to'siq bo'lib turibdi, biz ko'p hollarda eski ma'muriy-buyruqbozlik va taqsimlash tizimining hamon davom etib kelayotgani, keyingi yillarda qator soha vazirliklari turli xo'jalik birlashmalariga, ya'ni korporatsiyalar, uyushmalar, kompaniyalarga aylantirilganiga qaramay, ularning mohiyati, ish usuli va uslublari amalda deyarli o'zgarishsiz qolmoqda³”.

Bugungi kunda respublikamizda ko'p ukladli bozor iqtisodiyotining shakllanishi, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, jumladan chet el investitsiyalari negizida tashkil etilayotgan qo'shma korxonalar, aksionerlik jamiyatlari, kompaniyalar va ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning integrallashuvi bu sub'ektlarni samarali boshqarish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston jahon iqtisodiyotining bir qismi, ya'ni siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, sarmoyaviy muhit, tabiiy boyliklari va xalqaro hamkorlik taraqqiyoti uchun ko'p jihatdan qulay makon sifatida xorijiy investorlar e'tiborini tortmoqda. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xalqaro iqtisodiy aloqalari mustahkamlanib borishi va ularning iqtisodiyotda tobora salmoqli o'rin egallashi, samarali korporativ boshqaruv tizimini kengroq joriy etish va uni takomillashtirish shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki investorlar O'zbekiston bozoriga uchta katta tavakkalchilik nuqtai-nazaridan qaraydilar. Bular siyosiy, iqtisodiy va korporativ boshqaruv tavakkalchiligidir. Shuni alohida ta'kidlash

³ Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jaraenlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, №11 (6194), 2015 yil 17 yanvar.

joizki, chet el sarmoyadorlari O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy qulay sharoiti bilan bir qatorda korporativ boshqaruv tavakkalchiligiga ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Shuning uchun ham yurtimizda korporativ boshqaruvning xalqaro andozalar talablariga javob beradigan tartib qoidalarini, ya'ni shaffoflik, hisobdorlik va javobgarlik tamoyillarini amaliyotga joriy etish va uni takomillashtirib borishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning hozirgi davr talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarishni yanada erkinlashtirish, ma'muriy islohotlarni chuqurlashtirish, korporativ boshqaruvning me'yor va tamoyillarini keng joriy etish, maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 22 dekabrda qabul qilingan "Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF –3366-sonli Farmoni muhim ahamiyatga ega. Unda tarmoq va iqtisodiyot sohalarini barqaror rivojlantirishning istiqbolli strategiyasini belgilash, ichki va tashqi bozorlarda jahon andozalari talabiga mos keladigan raqobatbardosh mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqishni o'zlashtirish, ularning tashqi bozorlarda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, korxonalarini modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ushbu maqsadlarga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishda yordam berish va hamda samarali boshqaruvni tashkil etishda axborot xizmatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Zamonaviy korporativ boshqaruv tushunchasi mamlakatimiz iqtisodiyotida nisbatan yangi tushuncha bo'lib, yaqin o'n yillar ichida, avvalo, respublika bank tizimida tatbiq etila boshlagan. Keyingi paytlarda uni ko'plab korxonalarda ham shakllantirishga e'tibor va korporativ boshqaruvga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortib borayotgani kuzatilmoqda. Buning uchun etarli xuquqiy asoslar yaratilgan. Biroq amaliyotdagi ahvol hozirgi davr talabiga javob bermayotgani sezilib qolmoqda.

Korporatsiya lotincha "corporation" – "uyushma", "birlashma" ma'nosini anglatib, korporativ boshqaruv (corporate governance) umumiy maqsadga erishish yo'lida bir guruh shaxslarning hamkorlikda faoliyat yuritishi deb

tushunilsa ham, lekin izlanishlar shuni ko'rsatyaptiki, bu tushunchaga umum e'tirof etilgan yagona ta'rif berilmagan. Avvalo, korporativ menejment va korporativ boshqaruv tushunchasi hamda ularning farqli tomonlariga oydinlik kiritishga harakat qilamiz.

Korporativ menejment tushunchasi professional faoliyat turi bo'lib, sohaning etuk mutaxassislari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektda yakuniy moliyaviy natijalarga erishish uchun amalga oshirilayotgan ish yuzasidan olib boriladigan xo'jalik operatsiyalarini maqsadga muvofiq yuritishni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, menejment korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashga yo'naltirilgan samarali biznesni olib borish mexanizmiga asosiy e'tiborni qaratadi. Korporativ boshqaruv tushunchasi esa kengroq ma'noga, ya'ni korporativ menejmentga nisbatan yuqori darajadagi tashkiliy tuzilma va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining turli jihatlariga aloqador bo'lgan shaxslar va tashkilotlarning o'zaro munosabatlari demakdir. Korporativ menejment va korporativ boshqaruv vazifalari faqat kompaniyaning rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilayotgandagina o'zaro to'qnashishi mumkin.

Mamlakatimizning mazkur soha bo'yicha etuk mutaxassislari korporativ boshqaruvning ko'plab ta'riflarini umumlashtirib hamda uning mohiyatidan kelib chiqib, ularning ba'zilar korporativ boshqaruv – foyda olish maqsadida va olingan daromadlarni korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilari o'rtasida adolatli taqsimlashga qaratilgan strategik muhim boshqaruvchilik qarorlarining aniqlanishi, ifodalanishi va qabul qilinishi ustidan o'zining doimiy real ta'sirini ta'minlashda korporatsiya mulkdorlarining ongli ravishdagi bevosita ishtirokidir desalar, boshqa mutaxassis esa korporativ boshqaruvni kompaniya rahbariyati va uning egalari (aktsiyadorlari) o'rtasidagi kompaniyaning samarali faoliyatini ta'minlash va uning egalari, shuningdek boshqa manfaatdor shaxslar (kompaniya xodimlari, kreditorlar, hamkorlar va boshqalar) manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha o'zaro munosabatlar tizimi sifatida belgilash mumkin, deb izohlaydi.

Korporativ boshqaruv – bu shunday tizimki, u orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektga rahbarlik qilish, rivojlanishning iqtisodiy va ijtimoiy resurslarini boshqarish, mulkdorlar hamda investorlar sarmoyalarini boshqarishning samarali va xavfsiz bo'lishini ta'minlash, manfaatdor tomonlarning qiziqishlarini aniqlash, bir-biriga moslashtirish, olinadigan daromadlarni ularning hissasiga monand taqsimlash uchun mo'ljallangan tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy tadbirlar amalga oshiriladi. Bunday boshqaruvning maqsadi aktsiyadorlik jamiyatlari va kompaniyalarning barcha faoliyat turlaridan imkon qadar ko'roq foyda olishga va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu tizimda barcha ishlar hamjihatlikda yuritilsa va qanchalik ko'p takomillashtirilsa, xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi shuncha yuqori bo'lishi ta'minlanadi.

Jahon tajribasi va o'rganilgan iqtisodiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, korporativ boshqaruvning juda ko'p modellari mavjud bo'lib, ular har bir mamlakatning huquqiy tizimi, mentaliteti va davlatlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan ifodalanadi. Shuning uchun ham korporativ boshqaruvning barcha mamlakatlarda, shu jumladan MDH mamlakatlarida ham iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida va hatto turli kompaniyalar uchun belgilab qo'yilgan hamda birdek amalga oshirish mumkin bo'lgan yagona modeli yo'q. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda korporativ boshqaruvning Amerika, Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya, Gollandiya, Italiya va Frantsiya usullari mavjud. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida shakllanayotgan korporativ boshqaruv ko'proq Germaniya modeliga moyil ekanligini ko'rish mumkin. Amaliyotning hozirgi sharoitida korporativ boshqaruvning dunyoda tan olingan 3 ta asosiy modeli bo'lib, bular: amerikacha unitar model, ikki bosqichli Germaniya modeli va tarmoqli yapon modeli hisoblanadi.

Germaniya modeli Germaniyaning o'zi, Niderlandiya, Avstriya va Evropaning ayrim mamlakatlarida joriy qilingan. Germaniya modeli aktsiyadorlik kapitalining jamlangan, yiriklashgan bazasida, bir nechta yirik aktsiyadorlar mavjud bo'lganda rivojlanib, kompaniyani boshqarish 2 ta bosqichda olib boriladi.

Bu birinchidan, Kuzatuv kengashini (unga aktsiyadorlar vakillari va korporatsiya xodimlari kiradi, odatda, xodimlar manfaatini kasaba uyushmalari himoya qiladi) va ikkinchidan, a'zolari menejerlar bo'lgan ijrochi organni o'z ichiga oladi. Bunday tizimning xususiyati nazorat qilish (Kuzatuv kengashiga berilgan) va ijro etish (Boshqaruv zimmasiga berilgan) vazifalarining aniq bo'linganidir.

Korporativ boshqaruv tizimining yaponcha modeli qaysidir jihatlari bilan nemis modeliga o'xshash bo'lgani bilan uni ko'proq mustaqil ravishda e'tirof etiladi. Biroq ushbu e'tirof etilayotgan 3 ta asosiy model va yuqorida ta'kidlangan Evropaning boshqa davlatlari modellaridan hech biri O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimi rivojlanishining hozirgi va kelajakdagi talablariga to'liq javob bermaydi. Chunki mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning o'ziga xosligi va bugungi kun tajribasi boshqa davlatlar tajribasidan tubdan farq qiladi. Ulardan farqli o'laroq, bozor islohotlarining bosqichma-bosqichlik tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar boshqa mamlakatlardagiga o'xshamagan, alohida milliy modelni yaratishni taqozo etadi. To'g'ri, korporativ boshqaruvni joriy etishda xalqaro amaliyot tajribalarining qaysidir jihatlari keng foydalaniladi. Ayni bir vaqtda mamlakatimiz tajribasida xalqaro amaliyot bilan o'xshash tomonlari ham mavjud. Lekin yuqorida ta'kidlangan 3 ta asosiy modeldan farqlanuvchi tomonlari va o'ziga xos farqlanuvchi jihatlari ham talaygina. Bular:

- O'zbekistonda korxonalar ustav fondidan davlat ulushini boshqarishda Davlat mulk qo'mitasining roli alohida ekanligi. Amerikada esa bu narsa yo'q;
- O'zbekistonda aktsiyadorlik jamiyatlarida Kuzatuv kengashi a'zolarining sonini o'zgartirish mumkin. Bu tajriba Germaniyada qo'llanilmaydi;
- Yaponiya aktsiyadorlik jamiyatlari Direktorlar kengashiga xorijiy investorlarni saylash bo'yicha norasmiy to'siqlar yaratganlar;
- O'zbekistonda "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq boshqaruv raisi (ijro organi rahbari) bir vaqtning o'zida Kuzatuv kengashi raisi bo'lishi mumkin emasligi va hokazo.

Izlanishlar, tajriba va tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar va aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning muvofiqlik darajasi talabga javob berishi bilan birga tizimda hali echimini kutayotgan bir qator muammolar ham mavjud. Bu masala yuzasidan xalqaro ekspertlar va mutaxassislar ham o'z fikrlarini bildirganlar.

1- jadval

Korporativ boshqaruvning muvofiqlik darajasini baholash⁴

№	AJ nomi	Baholash mezonlari						Umumiy ball
		Mulkchilik tuzilishi	AKTSIYADORLAR bilan	munosabat ivoriyaviy	shaffoflik va axborotning ochiqligi	kengashining tuzilishi va faolivati	Boshqaruv faoliyati	
1.	O'zgeoneftgaz qazib chiqarish	3	3	3	2	3	3	
2.	O'ztransgaz	2	2	3	3	3	3	
3.	O'zagrotrans	2	4	3	3	2	3	
4.	O'zbekenergo	3	2	2	2	3	2	
5.	O'zbekiston pochta	3	3	3	2	3	3	
6.	O'zbektelekom	2	2	3	1	3	2	
7.	O'zburg'neftgaz	1	3	3	2	3	3	
8.	O'zneftgazqurilish	2	3	3	2	2	2	
9.	Fayz	4	4	3	3	3	3	

Korporativ boshqaruvning muvofiqlik darajasi 4-balli shkala bo'yicha baholanadi:

4 – juda yaxshi; 3 – talablarga javob beradi;

2 – takomillashtirishga muhtoj; 1 – muvofiq emas.

Bizning fikrimizcha, bunday muammolar quyidagilardan iborat:

⁴ Korporativ boshqaruvni isloh qilish dasturi. "Karana" Korporatsiyasining korporativ boshqaruv bo'yicha yakuniy hisoboti asosida muallif tomonidan tuzilgan.

– aktsiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda aniq strategik vazifalar va ularga erishish yo'llarining tashabbuskori hisoblanadigan Kuzatuv kengashi a'zolarining ishga rasmiyatchilik bilan qarashi yoki nomigagina qatnashishi; ularning mas'uliyatni his etmasdan bu faoliyatga faxriy bir lavozim sifatida qarashlari;

– kuzatuv kengashi a'zolari va aktsiya egalarining bu sohada malakasi, tashabbuskorligi, kasbiy salohiyatining pastligi, o'z huquq va majburiyatlarini etarli darajada tushunib etmasliklari;

– korporativ boshqaruv tizimida ixtisoslashgan muassasa – “g'oyalar fabrikasi”ning yo'qligi. Bunday ixtisoslashtirilgan muassasalar iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan “nou-xau”, yangi texnologiyalar va ilmiy-texnika taraqqiyoti yangiliklarini olishga yo'naltirilgan bo'lishi;

– kompaniyada mulk tarkibi va mulk egasi xaqidagi axborotlarning ochiq emasligi yoki oshkor etilmasligi investorlarning qiziqishlari pasayishiga va investitsion qarorlar qabul qilishda qiyinchiliklarga olib kelishi; Ochiqlik va shaffoflikda ishonch bo'ladi. Chunki tiniq narsaning orqa tomoni hamisha ko'rinib turadi;

– aktsiyadorlik jamiyatlarida aktsiyadorlarga faqat yillik hisobotdan tashqari boshqa ma'lumotlarning o'z vaqtida berilmasligi; Bu aktsiyador va investorlarga menejerlar, Kuzatuv kengashi va umuman jamiyat faoliyatining samaradorligini baholashda qiyinchilik tug'diradi;

– aktsiyadorlik jamiyatlarida menejerning (direktorning) rahbar sifatida boshqarishdagi ustunligi Kuzatuv kengashi rolining pasayishiga va umuman samarali korporativ boshqaruvga salbiy ta'sir qilishi va boshqalar.

Bu muammolarni bartaraf etish, mamlakatimizda korporativ boshqaruvni shakllantirish va uni yanada takomillashtirish yo'lida xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish, uning ayrim jihatlari va mexanizmlarini qabul qilish muhim omillardan biridir. Chunki aktsiyador yoki investor o'z mablag'ini qo'yishda, albatta, ob'ektning moliyaviy ahvolini hisobga oladi. Agar moliyaviy ko'rsatkichlari jihatidan ikkita bir xil ob'ekt bo'ladigan bo'lsa, u holda investor yoki aktsiyador

o'z mablag'larini korporativ boshqaruv yaxshi tashkil etilgan kompaniyaga qo'yishi mumkin ekanligi tajribadan ma'lum.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkiloti 1999 yilda "IHTTning korporativ boshqaruv tamoyillari" nomli hujjatni chop etdi. Bu hujjat shu tashkilotga kiruvchi mamlakatlar hukumatlariga korporativ boshqaruvni rivojlantirish yo'lida huquqiy va me'yoriy asoslarni takomillashtirish bo'yicha yo'llanma va tavsiyalar berishga mo'ljallangan. Iqtisodiyotda mulkchilikning shakllari va huquqiy maqomidan qat'i nazar, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishning ushbu tamoyillari majburiy tusga ega bo'lmay, tavsiya sifatida havola etilgan. Bular quyidagilardan iborat:

1. Aktsiyadorlarning huquqlari (korporativ boshqaruv tizimi aktsiya egalarining huquqlarini himoya qilishi kerak);

2. Aktsiyadorlarga bir xil munosabatda bo'lish (korporativ boshqaruv tizimi barcha aktsiya egalariga, jumladan mayda va chet el aktsiyadorlariga bir xil munosabatni ta'minlashi lozim);

3. Korporatsiyani boshqarishda manfaatdor shaxslarning roli (korporativ boshqaruv tizimi manfaatdor shaxslarning qonun bilan belgilangan huquqlarini tan olish va kompaniyaning hamda manfaatdor shaxslarning kapitalini ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, korporatsiya bo'linmalarining moliyaviy barqarorlikka erishish borasidagi faol hamkorligini qo'llab-quvvatlash);

4. Axborotning ochiqligi va ravshanligi (korporativ boshqaruv tizimi korporatsiya faoliyatining barcha jihatlari, shu jumladan uning moliyaviy ahvoli, unumdorligi, mulki va kompaniya boshqaruvi haqidagi ochiq, ishonchli ma'lumotlarning o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlashi lozim);

5. Rahbarlik va mas'uliyat (korporativ boshqaruv tizimi kompaniyaga strategik rahbarlikni, boshqarish faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatishni hamda kompaniya va aktsiyadorlar oldidagi javobgarlikni ta'minlashi lozim).


Yuqorida keltirilgan tavsiyalar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, korporativ boshqaruvni takomillashtirishda ularning maqsadga muvofiq

tomonlarini olish foydadan holi bo'lmaydi. Bu aktsiyadorlik jamiyatlarining ichki imkoniyatlarini aniqlash, resurslarini oqilona ishlatish orqali jamiyat va aktsiyadorlarning qaysidir jihatdan maqsadlariga erishishlarini ta'minlaydi.

Har bir davlatda korporativ boshqaruvning milliy modeli huquqiy tizimni e'tiborga olgan holda o'zining iqtisodiy ob'ektiv holati, tarixiy va madaniy tabiatiga mos ravishda yaratiladi. Chunki dunyoda korporativ boshqaruvning samarali, barcha jihatlarni o'z ichiga olgan yagona modeli yo'q. Xalqaro amaliyotda tan olingan korporativ boshqaruv modellari va ularning rivojlanishini har tomonlama o'rganishdan maqsad – rivojlanishning o'zimiz uchun eng qulay, o'ziga xos hususiyatlarini e'tiborga olgan holda O'zbekiston manfaatlariga mos milliy modelni yaratishdan iborat. Binobarin, yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “Korporativ boshqaruv tizimini tegishli tartibda o'rnatish bugungi kunning muhim strategik yo'nalishlaridan biridir”.

Hozirgi kunda korporativ boshqaruvi milliy modelining tuzilmaviy asosi bor, u yaratilgan.

Shuni aytish joizki, mamlakatimizda korporativ boshqaruvning milliy modeli 1996 yildan to shu kunga qadar bosqichma-bosqich takomillashtirib kelinmoqda. Xususan, “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1996 yil), Prezident farmonlari va qator hukumat qarorlari orqali aktsiyadorlik jamiyatlarini korporativ asosda yangicha boshqarishning huquqiy asoslari yaratildi.



1-chizma. Korporativ boshqaruvning milliy modeli tuzilmasi⁵.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF –3202-sonli Farmoni mamlakat iqtisodiy qudratini yuksaltirishda, xususiylashtirilgan korxonalarda korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi.

"Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysi" davlat korxonasi (keyingi o'rinlarda – Markaziy depozitariy) hisobot davri davomida O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunida hamda Vazirlar Mahkamasining "Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysini

⁵ Muollif ishlanmasi

tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida"gi qarorida uning zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalarni bajargan holda, quyidagi ishlarni amalga oshirdi.

2016 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra Markaziy depozitariy tomonidan 714 ta aktsiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari hisobi yuritilib, qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining umumiy hajmi nominal qiymatiga ko'ra 16 472,85 mlrd. so'm miqdoridagi 2 319,58 mlrd. dona aktsiyani tashkil etdi.




1-rasm. O'zbekiston Respublikasida aktsiyadorlik jamiyatlari sonining o'zgarishi dinamikasi⁶.

O'zbekistonda korporativ boshqaruvning o'ziga xos tizimini shakllantirishni belgilab beruvchi milliy jihatlari sifatida Kuzatuv kengashiga ikkita – korporativ maslahatchi (kotib) va ichki audit xizmati yangi elementining kiritilishi bo'ldi. Korporativ maslahatchi (kotib) aktsiyadorlik jamiyatlarida mulkdorlar o'rtasida, uning ijro etuvchi organi va kuzatuv kengashi orasidagi bo'ladigan muntazam

⁶ Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

samarali muloqotni ta'minlab beruvchi xodim hisoblanadi. Bu lavozimda faoliyat yuritadigan xodim oliy ma'lumotli, tajribali, samarali muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. U o'z korxonasi faoliyatining ichki xususiyatlarini yaxshi bilishi, korxonadagi ahvolni va bozordagi vaziyatni tahlil qila olishi, shu bilan birga bo'layotgan hodisa va voqealar haqida korxonada boshqaruviga o'z vaqtida axborotlar tayyorlab berib turishi kerak. Korxonalarda ichki audit xizmatining ahamiyati va uni tashkil etishning asosiy yo'nalishlariga keyingi boblarda alohida to'xtalib o'tamiz.

Эмиссияларнинг умумий хажми ва эмиссиядаги акциялар сони



(01.01.2015 yil holatiga ko'ra: 1088ta aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlari chiqarilishlarining umumiy hajmi 12 725,58 mlrd.so'm miqdordagi 965 265,90 mln. dona aktsiya).

2-rasm. O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari emissiyasining umumiy hajmi o'zgarish dinamikasi⁷

7

"Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysi" davlat korxonasi 2015 yil faoliyat yakunlari

Aktsiyadorlik jamiyatlari soni 374 taga qisqarganiga qaramay, hisobga olingan aktsiya chiqarilishlarining umumiy hajmi - 3 742,42 mlrd. so'mga, son ko'rsatkichida 1 354,32 mlrd. dona aktsiyaga ko'paygan. Markaziy depozitariy tomonidan, shuningdek, umumiy qiymati 301,51 mlrd.so'm bo'lgan 9,83 mln. dona korporativ obligatsiyalar hisobi yuritildi. Ulardan umumiy qiymati 257,77 mlrd.so'm bo'lgan 8,66 mln. dona korporativ obligatsiyalar 12 ta tijorat banklari tomonidan chiqarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yilning 24 apreldagi PF-4720-sonli "Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 2015 yil davomida aktsiyadorlik jamiyatlarining 378 ta qimmatli qog'ozlari hisobdan chiqarildi. Ulardan 105 tasi o'z faoliyatini yakunlagan, 273 ta aktsiyadorlik jamiyati esa boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga o'zgartirilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, korporativ boshqaruvning shakllanayotgan milliy modeliga muvofiq ichki audit xizmati joriy etilishi munosabati bilan ayniqsa, buxgalteriya hisobining ahamiyati, mas'uliyati, javobgarligiga va uning ma'lumotlari aniqligiga nisbatan talab keskin ortadi. Chunki, buxgalteriya hisobi yordamida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moddiy boyliklari, pul mablag'lari harakati, hisob-kitob muomalalari doimo kuzatib boriladi va nazorat qilinadi. Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq xarajatlar aniqlanadi. Shuningdek bunda, mulkdorlar va investorlarni doimo birdek qiziqtiradigan xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari va korxonalarining umumiy mulki haqidagi ma'lumotlar o'z aksini topadi. Korporativ boshqaruv sharoitida buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi foydalanuvchilarni to'liq va ishonchli moliyaviy hamda buxgalteriya axborotlari bilan o'z vaqtida ta'minlashdan iborat. Bundan tashqari, korxonada bo'layotgan yangi hodisa, voqealarni o'z vaqtida to'g'ri hisobga olishi, tahlil etishi va shu asosda barqaror rivojlana olishi uchun u ma'lumotlar yig'ish va qayta ishlashning samarali tizimiga ega bo'lishi kerak. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish va uni yuritish ishlari "Buxgalteriya

hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari zimmasiga yuklatiladi. Korxonalar rahbari buxgalteriya hisobi to'g'ri yuritilishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish orqali ichki hisob va hisobot tizimining ishlab chiqilishini, xo'jalik muomalalarini nazorat qilish jarayonini, buxgalteriya hisobini to'liq, aniq va o'z vaqtida yuritilishini, hujjatlarning saqlanishini, tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobot tayyorlanishini va hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi iqtisodiyotning har qanday tizimida shu jumladan korporativ boshqaruvda ham quyidagi 5 ta: rejali; nazorat; axborot; tahliliy funktsiya (baholash); hisob funktsiyalarini bajarish orqali o'zini namoyon etilishiga rioya qilishi lozim. Shu jihatlar korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobining naqadar zarurligi va uning amal qilishi dolzarb masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotda shakllanayotgan korporativ boshqaruvning milliy modelini buxgalteriya hisobining ilg'or tajribalariga tayangan holda yanada takomillashtirib borish lozim.

Korporativ boshqaruvning milliy modelini yaratish va uni takomillashtirish negizida milliy ma'naviyat va milliy g'oyalar yotadi. Bizning milliy g'oyamiz esa yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi yuksak tushunchalarni o'z ichiga olgan.

1.2. Korporativ boshqaruv shaklidagi korxonalarda buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etishning uslubiy jihatlari

Mamlakat milliy iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish, moliyaviy axborotlar shaffofligini ta'minlash korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, unga samarali rahbarlik qilish uchun juda muhim hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi korxonalar xo'jalik faoliyatining barcha jarayon va muomalalarini, shu jumladan yuz beradigan ayrim

hodisalarni uzluksiz kuzatish, o'lchash, ro'yxatga olish, ishlab chiqarish rejasining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish hamda korxonani boshqarish ishida asosiy vazifalarni bajaradi. Bu buxgalteriya hisobining asosiy mazmunini tashkil etadi. Turli mulkchilik shakllarining paydo bo'lishi, davlat mulkining xususiylashtirilishi, xususiy sektorga alohida e'tibor berilishi, aktsiyadorlik jamiyatlari, kichik korxonalarining vujudga kelishi o'tish jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Bunday sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida haqiqiy raqobat hukm suradi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mustaqil ravishda chet el korxonalari bilan xorijiy sarmoyalarni kiritish bo'yicha iqtisodiy aloqalar o'rnatadi, kim oshdi savdosi faoliyat ko'rsata boshlaydi. Demak, bozor iqtisodiyoti tovar – pul munosabatlariga asoslangan va shu munosabatlarni tartibga soladigan iqtisodiy qonunlar asosida boshqariladigan iqtisoddir. Respublikamizda bozor munosabatlariga Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tarkibidagi boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, o'ziga xos bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyili asosida o'tilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun ishonchli zamin yaratish ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishni va yuksak unum bilan mehnat qilish omillarini ishga solishni talab etadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni har tomonlama jadallashtirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish borasida ichki imkoniyatlarni aniqlash va ulardan to'liq foydalanish uchun imkon beradigan samarali boshqaruv tizimini yaratish alohida ahamiyatga ega.

Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritish uchun o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldirib boradigan ma'lumotlar yig'indisidan foydalaniladi. Bu ma'lumotlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga miqdor va sifat jihatidan tavsif beradi va ular asosida korxonaning asosiy faoliyati rejalashtiriladi, hisob va hisobotlarni yuritish yo'lga qo'yiladi, bajarilgan ish va xizmatlar baholanib, tegishli tartibda rag'batlantiriladi. Ma'lumki, iqtisodiy ma'lumotlar rejali va hisobot ma'lumotlariga bo'linadi.

Iqtisodiyotning hozirgi sharoitida korxonalar faoliyatini rejalashtirish demokratik tamoyillarga muvofiq ilmiy asosda biznes-rejalar ishlab chiqishni taqozo etadi hamda mehnat jamoasining keng ishtiroki bilan amalga oshirilishi lozim. Bunda har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'zining uzoq muddatli vazifalaridan kelib chiqib va hududni kompleks rivojlantirish rejalarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari belgilab oladi. Hisobot ma'lumotlarida muayyan bir davrda erishilgan haqiqiy natijalar aks ettiriladi, uning asosiy qismi esa buxgalteriya hisobida ko'rsatiladi. Hozirgi paytda barcha iqtisodiy axborotlarning deyarli 75 foizdan ortiq qismini buxgalteriya hisobi ma'lumotlari tashkil etishini inobatga olsak, bu ishlarni tashkil qilishga qo'yilgan eng asosiy talab – uning sodda, tushunarli va kam xarajatli bo'lishini ta'minlashdir. Korxonada hisob ishlarini ana shunday tashkil etilgandagina, buxgalteriya hisobi va hisoboti ishlarida yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Buxgalteriya hisobi korxonalarda sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlarini va mablag'lar harakatini muayyan hujjatlar bilan asoslangan holda ro'yxatga olish va uni pul ifodasida baholab, umumlashtirilgan tarzda yoppasiga va bevosita kuzatishi lozim. U korxonaning xo'jalik faoliyatini boshqarish va unda xo'jalik hisobini joriy etish, korxonada biznes-rejasini va istiqboldagi strategik dasturlarni tuzishda kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlashda muhim vosita hisoblanib, korxonada mablag'laridan to'g'ri, unumli foydalanish hamda uning butligini ta'minlash ustidan ham dastlabki, ham joriy nazoratni yuritish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobi bu funktsiyalarni bajarishda turli usullardan foydalanadi va ijtimoiy tizimning maqsadiga qarab boshqa xil vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Kezi kelganda shuni ta'kidlab o'tish joizki, keyingi paytlarda ayrim iqtisodiy adabiyotlarda “funktsiya” bilan “vazifa” tushunchasi chalkashtirib talqin etilmoqda. Vaholanki, “funktsiya” so'zi lotincha yo'nalish, faoliyat, majburiyat yoki ishni anglatib, u yoki bu narsa nima uchun xizmat qiladi degan savolga javob

beradi. “Vazifa” esa funktsiya emas, balki u amalga oshirilishi yoki echilishi lozim bo’lgan narsani anglatadi.

Buxgalteriya hisobining vazifalarini yaxshi tushunish uchun uning ob’ektlarini bilib olish zarur.

Korxonalaridagi buxgalteriya hisobining obektlarini quyidagi to’rt guruhga bo’lish mumkin:

1. Korxonada mablag’lari (resurslari) va ularning manbalari: mehnat vositalari, tovar-moddiy boyliklari, pul mablag’lari, tayyor mahsulot, ustav fondi, boshqa har xil fondlar, kelgusidagi xarajatlar va to’lovlar, korxonalar foydasi hisobidan tashkil qilingan har xil zaxiralar (rezervlar) va hokazolar. Bu mablag’lar korxonaning ishlab chiqarish jarayoni uchun tegishli sharoit yaratib beradi;

2. Korxonada sodir bo’layotgan muhim jarayonlar: tovar-moddiy boyliklarni tayyorlash, mahsulot ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar realizatsiyasi, kapital qurilish va boshqalar;

3. Hisoblashish muomalalari: byudjet, mol etkazib beruvchilar va pudratchilar, xaridorlar, ishchi va xizmatchilar, davlat banki va boshqa banklar hamda boshqa tashkilot va shaxslar bilan hisob-kitoblar;

4. Korxonada xo’jalik faoliyatining moliyaviy natijalari: jamoaning daromadi, foyda va zararlari.

Buxgalteriya hisobi xo’jalik faoliyati bilan boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchilar o’rtasida aloqa bog’lash uchun xizmat qiladi. U xo’jalik faoliyati ma’lumotlarini keyinchalik undan foydalanish maqsadida ma’lum tartibda qayd qiladi. Olingan ma’lumotlarning kerakligi jihatlarini axborotga aylantirish uchun qayta ishlab chiqadi va bu axborotni hisobotlar ko’rinishida qaror qabul qiluvchilarga foydalanish uchun topshiradi. Ba’zi iqtisodiy adabiyotlarda buxgalteriya hisobini boshqaruv axborot tizimining moliyaviy markazi, deb ham ta’riflashadi. U boshqaruv xodimlariga, mulkdorlarga, investorlarga va tashqi foydalanuvchilarga ham korxonada faoliyati haqida to’la ma’lumotga ega bo’lish imkonini beradi.

Amaliyotni o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pincha "buxgalteriya hisobi" bilan "hisobchilik" tushunchasi chalkashtirib yuboriladi. Vaholanki "hisobchilik" – buxgalteriya hisobini yuritish, xo'jalik muomalalarini qayd qilish, rasmiylashtirish va hisob-kitob hujjatlarini saqlash jarayonidir. Bu qayta-qayta bajariladigan ish jarayoni buxgalteriya amalga oshiradigan faoliyatning bir qismidir. "Buxgalteriya hisobi" esa o'zida axborotdan foydalanuvchilarning talablariga javob beradigan axborot tizimini yaratishni ham qamrab oladi. Uning asosiy maqsadi axborotni tahlil qilish, tushuntirish va undan foydalanishdir. Buxgalteriya hisobi tizimlar dizayni, smetalar tuzish, xarajatlarni tahlil qilish, har oydagi soliqlarni hisoblash va uni rejalashtirishdan iboratdir.

Shuning uchun hisobchi bilan buxgalterni bir-biriga mutlaqo taqqoslab bo'lmaydi. Chunki hisobchi buxgalteriya hisobida amalga oshiriladigan ba'zi-bir vazifalarni, shu jumladan, arifmetik hisoblash, jamlash, ko'chirish, hujjatlar to'ldirish va undagi yozuvlarni tekshirish va boshqa shu kabi ikkinchi darajali ishlarni bajaradi. Buxgalter esa xo'jalik muomalalariga tegishli buxgalteriya provodkalarini berish, ularni tegishli hisob registrlariga yozish, reja va smetalarni tuzish, mahsulotning rejadagi va haqiqiy tannarxini aniqlash, xarajat me'yorlaridan chetga chiqish sabablarini o'rganish, ulardan har birining rentabellik darajasini aniqlash, buxgalteriya hisobi va hisoboti axborotlarini tahlil qilib, undan mantiqiy xulosalar chiqarib, boshqaruv qarorlarini tayyorlash ishlarini bajaradigan va ularni hayotga tatbiq etadigan mutaxassisdir. Ayniqsa korporativ boshqaruv shaklidagi korxonalar buxgalterlaridan korxonalar moliyaviy holatining ob'ektiv baholashni bilish, moliyaviy tahlil usullarini egallash, qimmatli qog'ozlar bilan ishlashni bilish va boshqalar talab qilinadi. Malakali buxgalterlarni ko'paytirmasdan turib to'laqonli rivojlangan buxgalteriyani ko'z oldimizga keltira olmaymiz. Bozor iqtisodiyotida buxgalter xo'jalik muomalalarini ularning ma'nosiga tushunmasdan ro'yxatga olib qo'yadigan hisobchi emas, balki nomaqbul voqealar sodir bo'lishi va avj olishini oldindan ko'ra biladigan, rahbarga o'zining maqbul va foydali maslahatlarini taklif qilib, xo'jalik faoliyatini to'g'ri yo'lga solishga yordam

beradigan mutaxassisdir. Bunday buxgalterni esa professional jamoat muassasalarida faol ishtirok ettirish, attestatsiyadan o'tkazish va litsenziyalash, axloqiy tarbiyalash orqali shakllantirish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda buxgalterlarning professional birlashmalari mustaqil va o'zini o'zi idora qiluvchi jamoat tashkilotlari hisoblanadi. Ular o'z saflarining sofligini, a'zolarining yuqori malakasi va axloqiy xatti-harakatlarini o'zlari mustaqil ravishda ta'minlaydi, nomzodlarni tanlab olish shartlarini tasdiqlaydi va sinovlardan muvaffaqiyatli o'tganlarga uyushmaga to'liq a'zo bo'lganligi va professional buxgalter degan oliy unvonga ega bo'lganligini tasdiqlovchi sertifikat (diplom) beradi.

Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda bunday buxgalterlarni diplomli buxgalterlar deyishadi. Ular hisobchilardan ancha yuqori qo'yiladi va mehnatlarini rag'batlantirishda ana shu afzalliklari hisobga olinadi. Mamlakatimizda bu masalalarni hal etishda O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy uyushmasi muhim rol o'ynashi kerak. Uyushmaning faoliyati uning rivojlanishining birinchi bosqichidayoq muvaffaqiyatli deb tan olingan bo'lib, natijada 2000 yilning may oyida O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy uyushmasi Xalqaro buxgalterlar Federatsiyasi (IFAC) a'ziligiga qabul qilindi.

Buxgalteriya hisobi iqtisodiyot rivojlanishining har bir bosqichida o'z zimmasiga tushadigan barcha xo'jalik vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham buxgalteriya hisobi boshqarish va nazorat qilish vositasi, xo'jalik faoliyati haqida aniq va sifatli axborot manbai sifatida, ayniqsa, hozirgi paytda juda muhim hisoblangan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona hamda tejab-tergab foydalanish ustidan qat'iy nazoratni amalga oshirishda, xo'jasizlik va isrofgarchilikka qarshi qat'iy kurash olib borishda, bunday hodisalar yuzasidan aniq choralarni ko'rishda, o'g'irliklar, qonunlarni qo'pol ravishda buzish hollarining oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda korporativ boshqaruv shaklidagi korxonalarda buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi boshqaruv qarorlarini tayyorlash, asoslab berish va

qabul qilish, korxonalarini o'z moliyaviy-xo'jalik faoliyati haqida sifatli, o'z vaqtida tayyorlangan axborot bilan ta'minlashdan iborat.

Mamlakatimizda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobi 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan tashkil etiladi. Qonunga ko'ra, mamlakatimiz korxonalarida buxgalteriya hisobi va hisobotini, buxgalteriya hisobining standartlarini ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobi bo'yicha umumiy rahbarlik qilish, uni tashkil qilishdagi uslubiy tartib-qoidalarni ishlab chiqish Moliya vazirligining buxgalteriya hisobi va auditi uslubiyati boshqarmasi zimmasiga yuklatilgan. Buxgalteriya hisobini yuritishning bu tartib-qoidalari jahon standartlariga muvofiqlashtirilgan bo'lib, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar korxonalarida yuritilayotgan buxgalteriya hisobi va hisobotining eng asosiy tamoyillarini mamlakatimiz korxonalarida joriy etishga qaratilgan.

Ma'lumki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi yuqori turuvchi vazirliklar, idoralar, statistika va soliq organlari kabi davlat boshqaruvi tizimlari uchun axborotlarni yig'ish va ishlashdan iborat edi. Korxonalar faoliyati to'g'risidagi eng muhim masalalar, jumladan, rejalashtirish, narx-navoni belgilash, xom ashyo va materiallar sotib olish hamda ularni iste'molchilarga etkazib berish, korxonalar xodimlarining ish haqini belgilash va boshqa shu kabi masalalar yuqori turuvchi davlat organlari tomonidan hal qilinadi. Korxonalariga davlat mulkini boshqarishning alohida bir bosqichi sifatida qaralar, buxgalteriya hisobi esa ularni mulkning to'raligi, bus-butun saqlanishi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlar edi.

Davlat yagona mulk egasi va korxonaning investori hisoblangan sharoitda korxonalar hisoboti davlat topshiriqlarini bajarish, davlat byudjetiga qilinadigan ajratmalarning to'g'riligini tekshirish va statistika axborotlarini yig'ish vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Iqtisodiyotning hozirgi sharoitida korxonalar faoliyati iqtisodiyotning oldingi tizimiga qaraganda tubdan farq qiladi va bu quyidagilarda yaqqol ko'rinadi:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning turli xil shakllari yuzaga kelishi bilan davlat mulki uning faqat bir turi bo'lib qoladi;

2. Iqtisodiyotning bu sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bozordagi talab va taklifni chuqur o'rgangan holda o'z faoliyatida ishlab chiqarish hajmini aniqlash, mol etkazib beruvchilar va xaridorlarni topish, narx-navoni mustaqil belgilash bilan izohlanadi;

3. Korxonalar faqat xaridorlar va tovar sotish bozoridagi raqobatchilik kurashida qatnashibgina qolmay, balki endi byudjetdan moliyalashtirish va davlat kreditlarining ajratilishi uchun, tijorat banklarining kredit resurslari hamda potentsial investorlarning shunday mablag'lari uchun ham kurash olib boradilar.

Buning uchun, birinchidan, korxonalarda korporativ boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish, ularning natijalarini baholash uchun shaffof axborotni o'z vaqtida va to'liq olish ehtiyoji tug'iladi. Ikkinchidan, shu korxonaga o'z mablag'larini qo'ygan mavjud investorlar va bo'lg'usi investorlarni ham korxonaga tegishli axborotdan boxabar qilish lozim bo'ladi. Shu bilan birga, bu sharoitida soliq ajratmalarining to'g'riligi haqida ham hisobot berish saqlanib qoladi.

Shunday qilib, korporativ boshqaruv shaklidagi korxonalarda buxgalteriya hisobi bozor sharoitida hisobchilik va statistika funktsiyalarini bajarish vositasidan korxonalarining faoliyati to'g'risidagi to'liq axborotni yig'ish, qayta ishlash, tahlil etish va nazorat qilish quroliga aylanadi. Iqtisodiyoti yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarda buxgalteriya hisobini biznes tili deb atashadi. Uni o'rganish har qanday tilni o'rganishga qaraganda murakkabroq. Chunki buxgalteriya hisobida ishlatiladigan aksariyat so'zlar o'ziga xos ma'noga ega bo'lganligi sababli uni o'rganish biroz qiyin kechadi. Har qanday til ham buxgalteriya hisobi kabi jamiyat taraqqiyoti bilan baravar rivojlanib, o'zgarib boradi. Buxgalteriya hisobida qo'llanilib kelayotgan qoidalar ham yoki ularning bir qismi tashkilotlarning

o'zgarib borayotgan ehtiyojlariga qarab o'zgarishi mumkin. Korxonaning maqsad va vazifalari turli-tuman bo'lishi mumkin, lekin raqobat juda kuchli bo'lgan sharoitlarda korxonaning muvaffaqiyatli faoliyati va raqobatbardoshligi ma'muriyatdan butun kuchni ikkita eng muhim maqsadga, ya'ni foyda (rentabellik) va likvidlikni ta'minlashga qaratishni talab etadi.

Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining birida buxgalteriya hisobi va hisobotining ma'lumotlari undan foydalanuvchilarning talablariga mos va tushunarli bo'lishi, mabodo ular ma'lumotlarni tushuna olmasalar buxgalteriya xodimlari og'zaki yoki xat bilan tushuntirib berishlari lozimligi ta'kidlangan. Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan yangi iqtisodiy tushunchalar, mulkchilikning yangi turlari va ilgari bizga tanish bo'lmagan yangi iqtisodiy hodisalar hayotimizga kirib keldi. Masalan, mulkchilikning yangi turlari: xususiy, shaxsiy, jamoa, aktsiyadorlik, shirkat va boshqa shu kabi ko'rinishlari paydo bo'ldi. Bular tufayli xo'jalik yuritishdagi har xil tavakkalchiliklar, xaridorning pul o'tkazmay qo'yishi, mahsulot iste'molchilarining topilmay qolishi, narxlarning keskin o'zgarib ketishi va hokazolar yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobida qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar qo'yish, o'z aktsiyalarini chiqarish va sotish, valyuta va harakatsiz mulklarga doir muomalalar, dividendlar olish va to'lash kabi yangi turdagi hodisalar ham yuzaga keldi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda buxgalteriya hisobini yangicha yuritishga doir qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Ulardan biri buxgalteriya hisobini tashkil etishning eng asosiy qurollaridan bo'lgan yangi hisobvaraqlar rejasidir. Bu hisobvaraqlar rejasida bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan deyarli barcha yangi tushunchalar hisobga olingan. Biroq bunday yangi tushunchalar «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida aniq va ravshan yozib qo'yilganiga qaramasdan, amaliyotda hanuzgacha "standart" – andoza, "hisobvaraqlar" esa – schyot atamalari bilan ishlatib kelinmoqda. Bunga misol sifatida birgina 21-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti – "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining

buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ni keltirish kifoya .

Umuman olganda, jamiyatning taraqqiy eta borishi bilan buxgalteriya hisobi fani ham boshqa iqtisodiy fanlar singari xo'jalikni boshqarishning asosiy qurollaridan biri sifatida doimo rivojlanib boradi. Keyingi paytlarda buxgalteriya hisobi va hisobot tizimida xalqaro talablarga javob beradigan o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Buxgalteriya hisobini davr talabiga monand ravishda takomillashtirishning asosiy xususiyati shundaki, davlat tomonidan hisob ishlarini tashkil etishga doir hujjatlarda buxgalteriya ishlarini yo'lga qo'yishning asosiy uslubiy tamoyillari bilan bir qatorda korxonaga hisob yuritishda u yoki bu siyosatni, buxgalteriya hisobining shaklini, hisob axborotini ishlash texnologiyasini, buxgalteriya ishlarini tashkil qilish usullarini tanlash huquqi berildi. Shu munosabat bilan keyingi paytda respublikamizda hisob nazariyasi va amaliyotida "korxonaning hisob siyosati" degan tushuncha ham paydo bo'lib, u zamonaviy sharoitda buxgalteriya hisobining rivojlanish yo'nalishini aks ettiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt farmon, qaror, nizom va yo'riqnomalarga rioya qilgan holda hisob siyosatini o'zi belgilaydi va uni korxonaga rahbariyati yoki mulk egasining buyrug'iga muvofiq amalga oshiradi. Bu buyruqda buxgalteriya apparatini tashkil qilish va uning tuzilishi, moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobini tashkil etish, buxgalteriya hisobini yuritishning aniq tartib va qoidalari belgilanadi. Ishga ijodiy yondashib, barcha me'yoriy hujjatlarni chuqur o'zlashtirgandagina korxonadagi hisob axborotlarining iqtisodiyotning hozirgi talablariga javob berishiga, hammaga tushunarli, ro'yi-rost bo'lishiga va boshqaruv faoliyati hamda tashqi foydalanuvchilar uchun himoyalangan bo'lishiga erishish mumkin.

Shunday qilib, mamlakatimiz hududida buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkiliy-uslubiy asosini 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevralda tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar va xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to’g’risida”gi Nizom tarkibidan 21-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti – “Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy-xo’jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo’llash bo’yicha yo’riqnoma” ham o’rin olgan holda, buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) tashkil etadi.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimizning o’ziga xos xususiyatlari inobatga olingan buxgalteriya hisobiga oid xalqaro standartlar talablariga mos 23 ta buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) ishlab chiqilgan.

Bu me’yoriy hujjatlar buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning umumiy qoidalarini belgilaydi hamda kimning qaramog’ida bo’lishi, mulk shakllari va faoliyat turlaridan qat’i nazar, barcha korxonalar va tashkilotlarga tegishlidir.

Shu bilan birga, korxonalar bu me’yoriy hujjatlarga asoslanib, xo’jalik yuritishning tashkiliy-xuquqiy shakllari, tarmoq xususiyatlari va faoliyat turlari, xodimlar malakasi va boshqa vazifalarni inobatga olgan holda buxgalteriya hisobi va nazoratni tashkil etish usullarini o’zlari mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega.

Buxgalteriya hisobini isloh qilish davlatning soliq siyosatini inobatga olgan holda olib borilishi kerak. Soliqqa tortish, ayniqsa, soliqqa oid qonun hujjatlarining bajarilishiga mas’uliyat bilan yondashish mustasnosiz barcha buxgalter xodimlarni qiziqtiradi.

Buxgalteriya hisobining soliq hisobi va hisoboti bilan aloqasini uzviylashtirish soliqqa tortish jarayonini buxgalteriya hisobi kabi tsivilizatsiyalashgan, xalqaro tan olingan amaliyotga yaqinlashtirish buxgalterlardan soliqqa oid qonun hujjatlarini batafsil bilishni talab qiladi.

Auditning mamlakatimizda vujudga kelishi va keng tarqalishiga sabab, avvalo turli mulkchilikka asoslangan hamda tashkiliy-huquqiy shakllari turlicha

bo'lgan korxonalarining paydo bo'lishidir. Ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida har bir mulkdor, har bir investor o'z mablag'larining qay holatda ekanligini va ulardan qanchalik daromad topayotganligini aniqlash, o'zlarining mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida auditorning xizmatiga ehtiyoj sezadi. Ayniqsa, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda korporativ boshqaruvning tamoyillarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish zaruriyati auditning ahamiyatini yana ham oshiradi. Bu masalalarni hal etish o'z navbatida auditni tashkil qilish va uning uslubiyatini takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki zamonaviy auditning e'tibori nafaqat kamchiliklar va zararlarni aniqlashga qaratilgan bo'lishi, balki ularning oldini olish, xatoliklarga yo'l qo'yilmasligi uchun zarur maslahatlar berishdan iborat bo'lishi kerak.

Buning uchun mamlakatimizda "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sohani yanada takomillashtirish, ularning moliyaviy barqarorligini oshirish hamda amalga oshirayotgan xizmatlar sifatini yuqori darajalarga ko'tarishga qaratilgan farmon va qarorlari, xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda auditorlar ish faoliyatini tartibga soluvchi 21 ta auditorlik faoliyati milliy standartlari (AFMS) ishlab chiqildi va amaliyotda qo'llanmoqda.

II bob. Boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditning o'ri hamda uning amaliyotdagi holati

2.1. Buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish va uning amaliyotdagi holati

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli tub islohotlar, demokratik o'zgarishlar, ochiq jamiyat qurish yo'lidagi sa'y-harakatlar negizida Vatanimiz xalqining manfaatlari, yurtimiz kelajagi va taraqqiyoti mujassam. Bozor munosabatlariga o'tishdagi o'ziga xoslik yangi davlat va jamiyat qurishda amalda o'zini to'la oqlagan besh tamoyil asosida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich izchillik bilan amalga oshirish va uni sifat jihatidan yuqori pog'onalarga ko'tarishda mustahkam zamin bo'lmoqda.

O'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlarni o'z ichiga olgan dastlabki bosqich – 1991-2000 yillar mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan iz qoldirgan o'tish davri tom ma'noda tarixiy ahamiyatga molik bo'ldi, shu davrda asosiy e'tiborni aholi turmush darajasining pasayishiga yo'l qo'ymaslikka qaratgan holda amalga oshirilgan islohotlar natijasida mustaqillikning dastlabki yillaridagi iqtisodiy qiyinchiliklar orqada qoldi. Shu bilan birga, 2001 yildan 2007 yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich – faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri esa iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish hamda hayotimizning boshqa sohalarini ham izchil isloh etishni ta'minlashda g'oyatda muhim rol o'ynagan davr bo'ldi. Shu yillar davomida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirishning har bir bosqichida ustuvor vazifalarni aniq belgilashga alohida e'tibor qaratilib, ularni hal etish uchun zarur moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga harakat qilindi. Ayniqsa, ishlab turgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va davr talabiga javob beradigan darajada texnik jihatdan qayta jihozlashga hamda umuman yangi va zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etishga qaratilgan qulay investitsiya muhiti

yaratildi. Bu ishlarning barchasini to'la-to'kis amalga oshirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning har bir so'mini tejab-tergash orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda hisob-kitob ishlari – buxgalteriya hisobining o'ziga xos o'rni bor.

Buxgalteriya hisobi boshqaruv tizimining asosiy funktsiyalaridan biri bo'lib, korxonalar, tashkilot va muassasalar faoliyatida bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarni kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish hamda qayta ishlash, ularni xolisona baholash, tahlil etish va nazorat qilish orqali shu sohada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, amalga oshirilgan ijobiy ishlar natijalarini esa yanada kengroq targ'ib etish va erishilgan yutuqlarni rivojlantirish borasida hamda kelgusidagi faoliyatning asosiy yo'nalishlarini belgilab olishda axborot manbai hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi va hisobotining mamlakatimizda ishlab chiqilgan milliy standartlarini xalqaro talablar darajasida amaliyotga tatbiq etish masalalari nihoyatda muhim bo'lib, u doimo davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor vazifalarini hal etishda, iqtisodiy islohotlar jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda alohida o'rin tutadi. Biroq mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida qabul qilingan qonunlar, qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning amaliyotdagi holati qay darajada va ular qanday ijro etilayapti, degan savol tug'iladi.

Ma'lumki, mamlakatimizda buxgalteriya hisobi va hisobot tizimini tashkil etishning asosiy tamoyillarini amalga oshirishda mustahkam zamin bo'ladigan va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyat ko'rsatishi uchun xalqaro standartlarga to'liq mos keladigan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 9 sentyabrda qabul qilingan 103-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 23 oktyabrda 1181-son bilan ro'yxatga olingan Buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-sonli BHMS) – “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma”siga asosan barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar 2004 yilning 1 yanvaridan boshlab buxgalteriya hisobini yangi hisobvaraqlar rejasi bo'yicha

yuritishlari shartligi belgilangan bo'lsa-da, "O'zbek ipagi", "O'zagromashservis" uyushmalarining ayrim viloyatlardagi bir qator xo'jalik yurituvchi sub'ektlarida hanuzgacha hisobvaraqlarning yangi rejasi qonun talablari darajasida joriy etilmagan. Uyushmalar tomonidan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va buxgalteriya hisobining milliy standartlari aksariyat quyi korxonalariga to'liq etkazib berilmaganligi va ular bilan buxgalter-iqtisodchi xodimlarning etarli darajada tanish emasliklari oqibatida ichki hisob va hisobot tizimi, xo'jalik operatsiyalarini nazorat qilish tartibi, hisob-kitob hujjatlarining saqlanish tartibi ishlab chiqilmagan.

Qonunda korxonalarda boshlang'ich hisob hujjatlarining majburiy rekvizitlari to'liq bo'lishi zarurligi, boshlang'ich hisob hujjatlarini tuzgan hamda imzolagan shaxslar ularning o'z vaqtida to'g'ri va aniq tuzilishi uchun javobgar ekanliklari, shuningdek xo'jalik operatsiyasi qatnashchilari tomonidan tasdiqlanmagan tuzatishlar kiritilishiga hamda kassa-pul hujjatlarida tuzatishlar va o'chirib yozishlarga yo'l qo'yilmasligi ko'rsatib o'tilgan. Biroq yuqorida ta'kidlangan uyushmalarning Sirdaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida faoliyat yuritayotgan ayrim xo'jalik sub'ektlarida boshlang'ich hisob hujjatlarining majburiy rekvizitlari to'liq yoki talab darajasida to'ldirilmayotgan, buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarida esa qonun va buxgalteriya hisobi yuritishning standartlariga zid ravishda o'zgartirishlar kiritish va ushbu o'zgartirishlar belgilangan tartibda imzo bilan tasdiqlanmagan. Kassa kirim-chiqim orderlarida hujjat raqami, tuzish sanasi, mansabdor shaxslar imzolari qo'yilmagan, shu bilan birga, kassa kitobi umuman yuritilmagan holatlarni kuzatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga hamda "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq qayta tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z ta'sischilarining umumiy yig'ilish qarori hamda qayta tashkil etish sanasida yakuniy (tugatish) moliyaviy hisobot va qabul qilish-topshirish dalolatnomalari asosida amalga oshirilishi lozim. Lekin o'rganib

chiqilgan ayrim korxonalar aktsiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat yuritib kelgan va ular 2004 yil davomida mas'uliyati cheklangan jamiyat shakliga o'tgan bo'lib, korxonalarda ta'sisчилarning umumiy yig'ilish qarori ham, qayta tashkil etilish sanasida tuziladigan yakuniy (tugatish) moliyaviy hisobot ham, qabul qilish-topshirish dalolatnomalari ham mavjud emas.

Bunday salbiy holatlar qonun hujjatlari va normativ hujjatlarning buzilishi yoki unga rioya etilmasligiga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tanglikka olib kelish bilan birga boshqa qonunlarni va qonun osti me'yoriy hujjatlarning ham buzilishiga sabab bo'ladi.

Yurtimiz iqtisodiyotida amalga oshirilgan izchil siyosat va tub islohotlar, o'tgan davr mobaynida yuz bergan yangilanishlar va sifat o'zgarishlari ushbu tizimda qonunchilikni takomillashtirishni taqozo etdi va yangi tahrirdagi Qonun 2000 yil 26 mayda qabul qilindi. Mazkur Qonun mamlakatimizda auditorlik xizmatlari bozorini rivojlantirish, unda kechadigan jarayonlar ko'lamini yanada kengaytirish, auditorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarni huquqiy jihatdan himoyalash va kafolatlashga hamda ularning yuqori kasb mahoratiga ega bo'lishlarini ta'minlashga imkon berdi. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunni amaliyotga samarali tatbiq etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrda qabul qilingan "Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvining ahamiyatini oshirish to'g'risida"gi 365-sonli Qarorida auditorlik faoliyatini litsenziyalash, auditorlik xulosalarini soliq organlari tomonidan hisobga olish tartibi va majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tmagan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan jarima undirish qoidalari belgilangan edi.

Respublikamizda 2016 yilning 1 aprel holatiga ko'ra auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari 103 ta bo'lib, ularning ustav kapitali eng kam oylik ish haqining 1500, 3000 va 5000 barobaridan kam bo'lmagan miqdorda bo'lishi shart ekanligi belgilab qo'yilgan. Shundan 85 ta auditorlik tashkiloti ustav kapitalida 50 foizdan ortiq aktsiyalar paketiga ega bo'lgan korxonalarda tashqi audit o'tkazishga ruxsat olgan. Shu bilan

birga, ularga barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishga ham ruxsat berildi. Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlarining aksariyat qismi Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda.

2 -jadval

O'zbekiston Respublikasida auditorlik tashkilotlarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi⁸

№	Hududlar	2016 yil 1 aprel holatiga ko'ra auditorlik tashkilotlari soni	Shu jumladan:		
			Ustav kapitali EKIHning 1500 barobaridan kam bo'lmagan miqdorda	Ustav kapitali EKIHning 3000 barobaridan kam bo'lmagan miqdorda	Ustav kapitali EKIHning 5000 barobaridan kam bo'lmagan miqdorda
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1	-	-	1
2.	Andijon	2	-	-	2
3.	Buxoro	2	-	1	1
4.	Jizzax	1	-	-	1
5.	Qashqadaryo	2	-	-	2
6.	Navoiy	2	-	-	2
7.	Namangan	7	1	-	6
8.	Samarqand	4	-	-	4
9.	Sirdaryo	2	-	-	2
10.	Surxondaryo	1	-	-	1
11.	Toshkent viloyati	2	-	1	1
12.	Farg'ona	7	-	1	6
13.	Xorazm	1	-	1	-
14.	Toshkent shahri	69	5	8	56
JAMI		103	6	12	85

Shu o'rinda, bizning fikrimizcha, yana quyidagi muammolarni ijobiy hal etish o'ta dolzarb hisoblanadi. Bular: mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aktsiyadorlik jamiyatlarining soni ko'pligi; ularga to'g'ri keladigan litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlarining kamligi; ularning mijozlarga o'z vaqtida va sifatli xizmat ko'rsata olmasligi; bu tashkilotlarning o'ta kamligi esa auditorlik xizmatlari bahosining keskin oshib ketishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida, audit

⁸ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

xizmatlari bozorida sog'lom raqobat muhitining shakllanishiga pasayishiga ta'sir ko'rsatadi.


Vazirliklar, qo'mitalar, kompaniyalar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning rahbariyati o'zlari boshqarayotgan korxonalarni audit tekshiruvdan o'tkazish uchun hech qanday tender tanlovlari o'tkazmasdan yoki bunday tanlovlarni nomigagina o'tkazib, qator yillar mobaynida bir auditorlik tashkilotini tanlayotganligi va risoladagidek silliq audit xulosasini olayotganligi hollarini ko'rish mumkin.

2.2. Korporativ boshqaruv jarayonida moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobi xususiyatlarining qiyosiy tahlili

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari va ustuvor yo'nalishlarning belgilanishi xususan ijtimoiy hayotni, shuningdek iqtisodiyotni liberallashtirishni, mulkdorlar sinfini tashkil etgan va uni rivojlantirgan holda barcha sohalarni, shu jumladan buxgalteriya hisobi va hisobot ishlarini takomillashtirish hamda uni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni taqozo etadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar rivojini aniq axborotlar manbaisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, korxonani boshqarish murakkab jarayon bo'lib, u ma'lum mazmun, miqdor, sifat va yo'nalishga ega bo'lgan axborotni talab etadi. Bu borada zamonaviy, tezkor hisob va hisobot tizimini keng ko'lamda takomillashtirmay turib, iqtisodiyotni hozirgi kun talablari asosida, kelajakni o'ylab jadal rivojlantirishga erishish mumkin emas. Hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaganidek, ayniqsa, iqtisodiyotda, shu jumladan boshqaruvda ham kechagi kun qarashlari yoki andozalari bugungi kunning talabiga mos tushavermasligi amalda o'z tasdig'ini topmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshqaruvning asosiy funktsiyalaridan biri va axborot manbai bo'lgan buxgalteriya hisobini nafaqat bugunning talabi asosida, balki ertangi kunni ham ko'ra bilgan holda takomillashtirishga erishmog'imiz lozim.

Buxgalteriya hisobini takomillashtirishda, eng avvalo, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi buxgalteriya hisobi tizimidan keng foydalanish lozim. Mamlakatimizda amal qilib kelayotgan buxgalteriya hisobi tizimini hozirda uning hisob ma'lumotlaridan foydalanuvchilar doirasi beqiyos kengayib borayotganligi va integratsiya jarayonlari chuqurlashayotganligini e'tiborga olgan holda xalqaro andozalar va belgilangan me'yorlar darajasida tashkil etish davr talabi hisoblanadi.

Bugungi kunda buxgalteriya hisobini muayyan turlarga bo'lgan holda tashkil etish va yuritish tartibi nazariy va amaliy jihatdan tatbiq etib kelinmoqda, shuningdek o'quv jarayonlarida ham uni turkumlarga ajratilgan holda o'qitishga bo'lgan yondashuv shakllanmoqda. Respublikamiz olimlari o'rtasida buxgalteriya hisobini turkumlarga ajratishda ikki xil yondashuv mavjud. Ba'zi iqtisodchi olimlar buxgalteriya hisobining ikkita turi mavjud degan fikrni olg'a surishsa, biz va boshqa ba'zi olimlar uning uchta turi mavjud ekanligini yoqlaymiz.



2-chizma. Buxgalteriya hisobining turlari⁹.

Jumladan, iqtisodchi olim B.Hoshimov buxgalteriya hisobini tizim sifatida ikki turga ajratgan: “Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining yagona

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

tizimi o'zaro bog'liq bo'lgan ikki qismdan – moliyaviy va boshqaruv hisobidan iborat”

A.Babajanov buxgalteriya hisobini o'qitilishi nuqtai nazaridan quyidagicha ta'riflaydi: “Hozirgi davrda buxgalteriya hisobi bozor iqtisodiyoti talablariga ko'ra ikkita mustaqil fanga – «Moliyaviy hisob» va «Boshqaruv hisobi»ga ajralib chiqdi.”

Shuningdek, iqtisodchi olimlar A.X. Pardaev va B.X.Pardaev ham o'z izlanishlarida boshqaruv hisobiga alohida e'tibor bergan holda buxgalteriya hisobini moliyaviy va boshqaruv hisobiga ajratib, ularni o'zaro taqqoslaganlar.

Bizning fikrimizcha, soliq hisobi barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda soliqlar va to'lovlarni o'z vaqtida va to'g'ri hisobga olish, soliq imtiyozlarini qo'llash hamda soliqlar va to'lovlarning belgilangan muddatlarda byudjetga o'tkazib borilishini ta'minlovchi buxgalteriya hisobining alohida bir turidir. Ushbu hisob turlari alohida-alohida vazifalarni bajarishini e'tiborga olib, soliq hisobini moliyaviy hisobdan ajratilgan holda yuritish lozim.

Boshqaruv hisobi xo'jalik yurituvchi sub'ektning barcha iqtisodiy axborotlar majmuasida asosiy o'rinni egallab, o'zida shunday hisob ma'lumotlarini jamlaydiki, bu ma'lumotlar faqat korxonaning o'zida boshqaruv uchun zarurdir. Boshqaruv hisobi nafaqat ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tannarxni kalkulyatsiya qilishni, balki u mavjud holatni nazorat qilish, tahlil etish, qaror qabul qilish, kompyuterlar va texnologik dasturlardan foydalanish, ichki resurslardan oqilona foydalanish, tannarxning shakllanishini boshqarish, xarajatlarning me'yordan chetga chiqishi yoki ularda ro'y bergan o'zgarishlarni tahlil etish va boshqalarni ham qamrab oladi. Boshqaruv hisobi ma'lumotlarida aynan kerakli ma'lumotlarni tez olish, o'qish va ulardan foydalanib, operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati bo'lishi lozim. Shuni ta'kidlash joizki, hisobning bu turida korxonada ma'muriyati tomonidan uning ichki qiziqishi va boshqaruv maqsadlarini ro'yobga chiqarish maqsadida hisobchilikda ayrim o'zgarishlar qilinishi mumkin. Chunki boshqaruv hisobining ma'lumotlari korxonada

faoliyatida kelgusi davrda amalga oshiriladigan xo'jalik operatsiyalari bilan bog'liq bo'lib, undagi ma'lumotlar ehtimollilik va sub'ektiv xususiyatga ega bo'ladi, shu bilan birga tijorat siri sifatida ham ushlab turiladi va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinmaydi. Hisobning bu turida ish yuritish xususan asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan korporativ boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhimdir.

Moliyaviy hisob shunday ma'lumotlarni o'zida mujassam etadiki, bu ma'lumotlardan nafaqat korxonada faoliyatiga rahbarlik qilishda foydalaniladi, balki korxonada faoliyati bilan qiziquvchi tashqi foydalanuvchilarga ham tegishli ma'lumotlar ma'lum qilinadi. Moliyaviy hisob amalda axborotlarni umumlashtirish va sintez qilishga yo'naltirilgan. U ba'zi-bir davr uchun korxonada foydasini tezkorlik bilan aniqlashga, korxonaning aktivlari va passivlarini hisobot balansi shaklida umumlashtirishga, uning mulkiy va moliyaviy ahvolini ta'riflashga imkon beradi.

Moliyaviy hisob – bu rasmiy hisob turi bo'lib, uni yuritish mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, tartib-qoidalar va andozalar asosida majburiy hisoblanadi. Tashqi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan moliyaviy hisob va hisobot hujjatlari soliq idoralariga belgilangan muddatlarda topshirilishi shartligi bilan birga, ularning ma'lumotlari auditorlik tekshiruvlari uchun asosiy axborot manbaidir. Biroq uni faqat tashqi foydalanuvchilar uchun deb qaramaslik lozim.

3-jadval

Moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobining qiyosiy tahlili¹⁰

№	Mezonlar	Moliyaviy hisob	Boshqaruv hisobi	Soliq hisobi
1.	Hisob yuritishning maqsadiga ko'ra	Axborotdan foydalanuvchilarni moliyaviy hisobot ma'lumotlari bilan ta'minlash	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborotlar bilan ta'minlash	Soliqlarning soliq organlariga o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishiga doir axborotlar bilan ta'minlash
2.	Hisob tamoyillariga ko'ra	Qonuniy va me'yoriy hujjatlarda belgilangan tamoyillar asosida	Umumqabul qilingan tamoyillar emas, balki rahbariyat belgilagan qoidalar asosida	Soliq kodeksi va soliqqa oid hujjatlarda belgilangan qoidalar asosida
3.	Hisob yuritishning majburiyiligi	Majburiy hisoblanadi	Majburiy emas, korxonahabariyat talabiga ko'ra yuritilishi mumkin	Majburiy hisoblanadi
4.	Axborot manbalariga ko'ra	Moliyaviy hisob va hisobot tizimi ma'lumotlari	Hisob tizimi ma'lumotlari, shuningdek boshqaruv qarorlari uchun keng ko'lamdagi boshqa axborotlar	Soliq hisobotlari
5.	Hisobning natijalaridan foydalanuvchilarga ko'ra	Tashqi foydalanuvchilar	Ichki foydalanuvchilar	Tashqi foydalanuvchilar, asosan DSQ organlari
6.	Hisobot axborotlarini topshirish shakliga ko'ra	Belgilangan shakl asosida	Belgilangan shakl mavjud emas, ixtiyoriy shaklda ham bo'lishi mumkin	Belgilangan shakl asosida
7.	Hisob axborotlarida qo'llaniladigan o'lchov birliklariga ko'ra	Pul o'lchov birligida	Natura, mehnat va pul o'lchov birligida	Pul o'lchov birligida
8.	Tanlash erkinligi	Ma'lumotlar aniq mezon va tamoyillar asosida shakllanadi	Ma'lumotlarning shakllanishiga hech qanday talab va mezonlar qo'yilmaydi	Ma'lumotlar aniq mezon va tamoyillar, soliqqa tortish qoidalari asosida shakllanadi
9.	Hisobot tuzishning davriyligi	Belgilangan muddatlarda	Muddat belgilangan emas	Belgilangan muddatlarda
10.	Axborotning aniqlik darajasi	Axborot aniq bo'ladi	Axborot taxminiy bo'lishi mumkin	Axborot aniq bo'ladi
11.	Taxminiy javobgarlik	Moliyaviy hisob va hisobot tamoyillari buzilishi oqibatida javobgarlikka tortiladi	Javobgarlikka tortilmasligi ham mumkin, chunki u faqat korxonahabariyat uchun xizmat qiladi	Soliq va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanmasligi hamda o'z vaqtida to'lanmasligi oqibatida javobgarlikka tortiladi

¹⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, biz soliq hisobini – hisobning alohida turi sifatida tashkil qilish, o'rganish va o'qitishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki soliq hisobi barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda soliqlar va to'lovlarni o'z vaqtida va to'g'ri hisobga olish, soliq imtiyozlarini qo'llash hamda ularni belgilangan muddatlarda byudjetga o'tkazib borilishini ta'minlovchi buxgalteriya hisobi turidir. Soliq hisobi o'z usullari yordamida soliq va yig'imlar, ularning ob'ekti, sub'ektlari va soliqqa tortish bazasini, to'lash muddatlarini belgilab beradi.

2.3. Korporativ boshqaruv shaklidagi korxonalarda ichki auditning ahamiyati va uni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri – samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni davlat tasarrufidan chiqarish, ularni xususiylashtirish hamda davlat tasarrufida bo'lgan, lekin investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarga muhtoj yirik korxonalarni aktsiyadorlik jamiyatlariga (korporatsiyalarga) aylantirishdan iborat. Iqtisodiyotning erkin bozor munosabatlariga o'tishi uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar natijasida mulkchilikning turli shakllari vujudga kelib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tarkibiy tuzilmalari hamda ular o'rtasidagi xo'jalik aloqalari xalqaro miqyosda kengaymoqda, tadbirkorlik faoliyatining barcha qatlamlarida moliyaviy va xo'jalik faoliyati natijalaridan manfaatdorlik darajasi tubdan o'zgarmoqda.

Aktsiyadorlik jamiyatlarining shakllanishida muhim hisoblangan ularning oliy organi – umumiy yig'ilish, jamiyatning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi kuzatuv kengashi va ijroiya organi korporativ boshqaruvning zarur bo'g'inlaridan hisoblanadi. Bu tizim aktsiyadorlik jamiyatlari va kompaniyalarda barcha resurslardan oqilona foydalangan holda eng yuqori samaradorlikni ta'minlash, investitsiyalarni jalb qilish, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy majburiyatlarni hal etish uchun xizmat qilishi kerak. Tizimning maqsadi –

mamlakatimizda amal qilayotgan qonun hujjatlariga to'liq rioya etgan holda aktsiyadorlar mulkidan unumli foydalanish va mumkin qadar ko'proq foyda olish hamda ularning manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Buning uchun korxonaning har bir so'mini tejab-tergab, maqsadga muvofiq ravishda sarf qilishga alohida ahamiyat berilishi kerak.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, samarali boshqaruv va uning asosiy axborot manbai bo'lgan buxgalteriya hisobini iqtisodiyotimizda bo'layotgan yangi o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda takomillashtirib borish dolzarb masalalardan biridir. Chunki buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ko'zgusi hisoblanib, uning ma'lumotlari asosida maqsadga muvofiq boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Hisob va hisobot ishlarining qay darajada tashkil etilganligi hamda jamiyatning yillik faoliyatini tahlil etish va unga baho berishda korporativ boshqaruvning uzviy bir bo'lagi sifatida auditorlik xizmati alohida o'rin tutadi. Korxonalarda korporativ boshqaruvni rivojlantirish va uning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishga yordam beruvchi eng samarali vosita audit hisoblanadi. Bu korporativ boshqaruv amaliyotini korxonaning strategik maqsadlari bilan solishtirish, muayyan vazifalarni oldinga qo'yish, maqsadga erishish uchun vazifalar echimini topish, umuman korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha aniq maslahatlar tayyorlashda muhimdir. Ma'lumki, audit – malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs (auditor) tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining barcha jihatlarini tekshiruv o'tkazish orqali tahlil qilib, unga xolisona baho berish, asoslangan xulosa taqdim etish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan konsalting xizmatlarini bajarishdir.

Asosiy maqsad – mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarda buxgalteriya hisobining to'g'ri yuritilishini ta'minlash, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar to'g'ri yuritilishini tekshirish, mulkdorlar manfaatini himoya qilish va boshqaruv organlari tomonidan ularning manfaatlariga zid harakatlar qilinishining oldini olish, bunday holatlar aniqlangan taqdirda bu

haqda mulkdorlarni xabardor etishdan iborat. Ichki audit xizmati korxonada xodimlarining o'z vazifalarini yanada samaraliroq bajarishlariga va shu bilan birga korxonaning ichki imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan to'liqroq foydalanishga yordam beradi.

Aktiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda ichki audit xizmatining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- Kuzatuvchi kengashini ishonchli axborot bilan ta'minlashga va ichki auditni amalga oshirish natijalari bo'yicha korxonada faoliyatini takomillashtirishga doir takliflar tayyorlash;

- korxonada boshqaruv organlariga ichki audit jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilish;

- boshqaruv apparatiga o'z funktsiyalarini samarali bajarishi uchun auditorlik nazorati bo'yicha tahlil materiallari, tavsiyalar va boshqa ma'lumotlarni berish orqali yordam ko'rsatish.

Bu vazifalarni amalga oshirishda ichki audit xizmati jamiyat Kuzatuv kengashiga bevosita bo'ysunadi. Unga ichki audit o'tkazish va uning natijalari bo'yicha hisobot tuzishda muayyan talablar qo'yiladi. Ichki audit xizmati xodimlari o'zlari o'tkazgan tekshirishlar natijalari buzib ko'rsatilganligi, ularga taqdim etilgan yoki ular tomonidan xizmat vazifalarining bajarilishi munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lgan korxonada sirini tashkil etuvchi axborotning maxfiyligiga rioya qilinmaganligi uchun javobgar hisoblanadilar. Ammo ichki audit boshqaruv nazoratining ajralmas va zarur elementlaridan biri hisoblanib, uning ahamiyati va zaruriyati korxonada boshqaruvining nazoratga bo'lgan talabidan kelib chiqadi. Ayniqsa, ayrim yirik aktsiyadorlik jamiyatlarining tarkibiy bo'linmalari, filiallari geografik joylashishining tarqoq bo'lishi, mahalliy rahbarlarning mustaqil qarorlar qabul qilishida ichki audit xizmatining zarurligi yaqqol ko'rinadi. Markaziy boshqaruv apparatiga joylardagi faoliyatning holatini nazorat qilish, qabul qilgan qarorlarni maqsadga muvofiqligini baholashda aniq

ma'lumotlar etkazib beradi. Bu talablar esa ichki audit xizmatining quyidagi funktsiyalari orqali amalga oshiriladi:

- har yili korxonaning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan rejaga muvofiq belgilangan yo'nalishlar bo'yicha tegishli tekshirishlar o'tkazish yo'li bilan ichki auditni amalga oshirish (har chorakda va hisobot yili yakunlari bo'yicha);

- tekshiruv va tahlil etish natijalariga ko'ra aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlash va taqdim etish, ishlab chiqarishning ichki imkoniyatlarini aniqlash, boshqaruv samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish;

- tuziladigan xo'jalik shartnomalarining qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza o'tkazish;

- korxonaning tarkibiy bo'linmalarining faoliyatini nazorat qilish, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishda metodik yordam berish, ularga moliya, soliq, bank faoliyatiga oid qonunlar va boshqa qonun hujjatlari masalalari bo'yicha maslahatlar berish;

- ichki nazorat faoliyati samaradorligini baholash;

- suiiste'mol qilish va gumonsirash holatlari bo'lgan taqdirda maxsus tekshirishlar o'tkazish;

- texnik topshiriqlarni ishlab chiqish, tashqi auditorlik tashkilotlarining takliflarini baholash hamda auditorlik tekshirishlarini o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlash yuzasida tavsiyalar tayyorlashda korxonaning Kuzatuvchi kengashiga ko'maklashish.

Demak, ichki audit xizmatining amalga oshiradigan funktsiyalari korxonalarda korporativ boshqaruvning muhim elementlaridan biri hisoblanib uning sifat ko'rsatkichlarini ham ifodalaydi.

Ma'lumki, auditorlik faoliyatini amalga oshirishda auditning maqsad va vazifalari, majburiyatlari va ob'ektlari har xil ekanligini inobatga olgan holda, ular tashqi va ichki audit xizmatiga bo'lingan.

Tashqi va ichki audit xizmati tashkil etilish uslubiyatiga ko'ra o'xshash bo'lsa-da, ular o'rtasidagi farq, avvalo ularni amalga oshirishning huquqiy, tashkiliy shakllarida namoyon bo'ladi. Bunda ichki audit doirasida aktivlar saqlanishining to'la nazoratini o'tkazish va mulk egasining mulkiy manfaatlarini himoya qilishdan tashqari, moliyaviy menejment sifati va siyosati ham nazorat qilinadi.

Soliq hisobini yuritish ham majburiy hisoblanib, u O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va soliq qonunchiligiga oid boshqa nomativ hujjatlar asosida tashkil etiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining qarorlari, tushuntirish va ko'rsatmalari uslubiy asos sifatida keng qo'llanilishi mumkin. Ushbu hisobni yuritish tartib-taomillari buzilganda qoidabuzarlarga soliq idoralari tomonidan ayblovlar qo'yilishi hamda ular belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin.

Hozirgi kunda soliq hisobi moliyaviy hisobning tarkibiy qismi sifatida o'rganiladi. Bunga, eng avvalo, soliq hisobining ma'lumotlari moliyaviy hisobotlarda aks ettirilayotganligi sabab bo'lmoqda. Ammo soliq hisobi moliyaviy hisobdan ajratilgan holda o'rganilishi lozim.

Chunki moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobi alohida-alohida vazifalarni bajaradi.

Moliyaviy hisobning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- moliyaviy hisobot tuzish;
- moliyaviy aktivlar ustidan nazorat o'rnatish.

Boshqaruv hisobining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- ishlab chiqarish xarajatlarini kalkulyatsiya qilish hamda mahsulot tannarxini aniqlash;
- ishlab chiqarish faoliyati ustidan nazorat qilish.

Ichki audit xizmati tashqi auditdan 2 ta asosiy farqli jihati bilan ajralib turadi.

Birinchiidan, tashqi audit korxonaning moliyaviy hujjatlari to'g'riligini tasdiqlashga asoslanadi. Ichki audit esa asosiy e'tiborni korxonaning mavjud nazorat tizimini va uning turli bo'linmalaridagi ishlab chiqarish, marketing, savdo-sotiq, moliya va boshqalarning holatini aniqlashga qaratadi.

Ikkinchidan, tashqi audit, birinchi navbatda, korxonada mijozlari bo'lmish iste'molchi, kreditor, soliq organlarining qiziqishlarini inobatga oladi. Ichki audit, birinchi navbatda, korxonada boshqaruvi qiziqishlariga qaratilgan bo'lib, uning samarali tizimi tashqi auditga ketadigan xarajatlarni qisman kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Aslida ichki audit xizmati o'tgan XX asrning 30-yillarida AQShda yuzaga kelib, bu xizmat turi keyinchalik Yaponiya va G'arbiy Evropa mamlakatlarida keng tarqalgan.

O'zida 160 davlatdan 93 ming odamni birlashtirgan Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti keltirgan ta'rifga ko'ra, "ichki audit – korxonada tomonidan uning o'z faoliyatini tekshirish va baholash maqsadida tashkil etilgan xizmatdir. U mustaqil va ob'ektiv maslahatlar berish asosidagi faoliyat hisoblanib, korxonaning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishga yordam beradi va bunda ichki audit xizmatidan nazorat, korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish hamda uning samaradorligiga baho berishda foydalanadi". Demak, ichki audit biznes maqsadlarni ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi faoliyatining hozirgi holatini aniqlash va uni rivojlantirish maqsadida tashkil qilinadi.

Ichki audit bo'limi boshlig'i korxonada rahbariga faoliyat natijalari haqida hisobot berish, tasdiqlash uchun o'z faoliyatini olib borish rejasini, uni amalga oshirish tartibini ma'lum qilishi, tekshiruv paytida reja o'zgargan taqdirda bu o'zgarishlar haqida ma'lumot berib turishi kerak.

4-jadval

Tashqi va ichki audit xizmatining tavsif jihatdan farqlanishi¹¹

Farq qiluvchi belgilari	Ichki audit xizmati	Tashqi audit
Maqsadi bo'yicha	Korxonada rahbariyati tomonidan belgilanadi	Moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini baholash va amaldagi qonunchilikka rioya etilayotganligini tasdiqlash
Qo'yilgan vazifalarga ko'ra	Korxonada bo'limlari yoki korxonaning talabiga ko'ra korxonada kengashi va boshqaruvchisi tomonidan belgilanadi	Mustaqil tomonlar o'rtasidagi shartnomaga asosan korxonada va auditorlik tashkiloti
Javobgarligi bo'yicha	Majburiyatni bajarganligi uchun rahbariyat oldida	Mijoz va huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan uchinchi shaxslar oldida
Ob'ekti bo'yicha	Boshqaruvning alohida funktsional masalalarini echish, korxonaning axborot tizimini ishlab chiqish va tekshirish	Korxonaning hisob tizimi va moliyaviy hisobotlarini tekshirish
Sub'ekti bo'yicha	Korxonada rahbariyatiga bo'ysunuvchi va shtat tarkibidagi xodimlar	Auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziasiga ega bo'lgan yuridik shaxs
Huquqiy jihatlari bo'yicha	Mustaqil belgilanadi	Umumqabul qilingan auditorlik standartlari bilan belgilanadi
Faoliyat turi bo'yicha	Ijro faoliyati	Tadbirkorlik faoliyati
O'zaro munosabat bo'yicha	Korxonada rahbariyatiga bo'ysunishi va undan mustaqilligi	Teng huquqli sherikchilik, mustaqillik
Xizmatlar uchun haq to'lash printsiplariga ko'ra	Shtat jadvaliga asosan ish haqi	Haqni mijoz-korxonada yoki uning roziligiga ko'ra auditorlik xulosasini olishga ehtiyoji bo'lgan organ to'laydi
Uslubiy jihatlari	Uslubiy jihatlari bir xil, ammo qo'yilgan maqsadlari turlichaligidan kelib chiqib har xil nisbatlarda qo'llaniladi	
Hisobotning taqdim etilishi bo'yicha	Korxonada egasi va boshqaruv organiga	Auditorlik xulosaning yakuniy qismi nashr ettirilishi mumkin, tahliliy qismi mijozga topshiriladi

Ma'lumotlar to'plash jarayonida bo'ladigan ayrim cheklovlar haqida ham ma'lumot berishi kerak.

Ichki audit bo'yicha hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ichki audit maqsadi;
- majburiyat va huquqlari;
- reja bajarilishi;

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

- yuqori darajali tavakkalchilik;
- nazorat va korporativ boshqaruv muammolari;
- rahbariyatga kerakli boshqa ma'lumotlar.

Korporativ boshqaruv sharoitida ichki audit xizmatining roli doimo ortib boraveradi. Bunday korxonalarda ichki audit xizmati: Kuzatuv kengashi bilan tekshirish rejasini muhokama qilish; auditning natijalari haqida hisobot tayyorlash; korporativ boshqaruv qoidalariga asosan nazoratni olib borish; ichki nazorat tizimi samaradorligi haqida hisobot tayyorlash; tashqi audit tekshiruvini o'tkazishga yordam berish; Direktorlar kengashiga taqdim etilayotgan hisobotlarni tekshirish va ularga o'z fikrini bildirish; korxonada rahbariyatining faoliyati haqida hisobotlar tayyorlash; korxonaning korporativ maqsadlarga erishish darajasini baholash jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, korxonaning maqsadi ish samaradorligini oshiruvchi hamda xatolarga vaqtida barham beruvchi tizim yaratishdir. Binobarin, eng yaxshi tashkil qilingan ichki nazorat tizimi ham o'z samaradorligini vaqti-vaqti bilan baholab borishi kerak. Bu maqsadga erishishda ichki audit xizmati alohida o'rin tutadi.

Ichki audit ichki nazorat tizimining samaradorligi va ishonchliligiga baho beradi, ichki auditorlar esa ushbu baholashni professional olib boruvchi shaxslar hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ichki audit korxonada xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini mustaqil baholash funksiyasini amalga oshiradi va korxonada boshqaruviga joriy nazorat tizimining ishonchliligini isbotlab beradi.

Ichki audit xizmati korxonada yangi loyihalar ishga tushirilayotganda ichki va tashqi tavakkalchiliklar mavjudligini tahlil qilish, tavakkalchiliklarni minimallashtirish yo'lini topish, yuz berishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni kamaytirish ishlarida ham faol ishtirok etishi kerak.

Ichki auditorlar korxonada mablag'larning ishlatilganligini, har xil loyiha va dasturlar bo'yicha monitoring hamda moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobini tashkil qilishni, uning ishonchliligi va o'z vaqtidaligini ta'minlashni tekshirib

turadi. Ichki auditorlar korxonaning boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan tuzilayotgan xo'jalik shartnomalari va tomonlarning majburiyatlari qonun hujjatlariga muvofiqligini ekspertizadan o'tkazish hamda unga baho berish orqali nazorat tizimiga ko'maklashadi.

Albatta, bu ishlarni tashkil etishda ichki audit xizmati korxonalar xodimlariga o'zi amalga oshirayotgan faoliyatning zarurligi va foydaliligini isbotlay bilishi kerak. Buning uchun esa ichki audit xizmati bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassis tashkilotni va boshqaruv tamoyillarini bilishi, shuningdek buxgalteriya hisobi, moliya, huquq, soliqqa tortish, savdo-sotiq, axborot texnologiyalari bo'yicha asosiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Yuqoridagi barcha sohalar bo'yicha mutaxassis bo'lish shart emas. Soha tanlash ixtiyoriy bo'lib, ichki audit bo'limida shu sohalardan biri bo'yicha malakali auditor mutaxassis bo'lsa, shuning o'zi kifoya.

Shunga ko'ra, agar audit o'tkazishda u yoki bu murakkab maxsus soha bo'yicha chuqur bilimlar zarur bo'lib qolsa, auditorlar tashqi mutaxassislarni, misol uchun, professional baholovchilar, statistlar, muhandislar, quruvchilar, geologlar va boshqalarni jalb qilishi mumkin. Auditorlar yakka holda yoki talab qilingan soha bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan xodimlardan tuzilgan guruh holida ishlashlari mumkin. Misol uchun, katta kapital qo'yilmalar auditida qurilish, huquq, buxgalteriya hisobi sohalarida etarli bilimlarga ega auditorlar kerak bo'ladi. Auditor o'z faoliyatini talab darjasida yuritishi uchun quyidagi professional sifatlarga ega bo'lishi kerak: har xil odamlar bilan muloqotga kirisha bilish, o'z fikrini aniq ayta olish va o'z nuqtai nazarini himoya qila bilish, baholash va muhokama qilishda nihoyatda extiyotkor bo'lish, to'g'rilik, tartiblilik va ishini rejalashtira bilish.

Mamlakatimizda ichki audit xizmatini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ichki audit Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan biznes reja bajarilishini; korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilinishini; buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisob holatini; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri

hisoblab chiqilishi va to'lanishini shu bilan birga umuman ichki nazoratning holatini tekshiradi va ularning monitoringini olib boradi. Ana shundagina mamlakatimiz amaliyoti rivojlangan davlatlar amaliyotiga yaqinlashadi va xalqaro standart talablariga javob bera oladi.

Fikrimizcha, ichki audit xizmati bo'limini tuzishda korxonalar rahbariyati, eng avvalo, uning mustaqillik darajasini belgilashi, ya'ni ichki audit xizmati rahbari va uning xodimlarini lavozimga tayinlash va egallab turgan lavozimidan ozod etish, korxonalar Kuzatuv kengashi qarorlariga binoan ularga ish haqi miqdorini va boshqa to'lovlarni belgilashi kerak. Chunki ichki audit xizmati faoliyatining samaradorligi aynan uning mustaqillik darajasiga bog'liq. Shuningdek bunda bir narsani unutmaslik kerakki, ichki auditning mutlaq mustaqillikka erishishi ham to'g'ri bo'lmaydi, chunki ichki auditorlar korxonalar xodimlari hisoblanadi va bu ular faoliyatining ob'ektivligiga bevosita ta'sir qiladi.

Ichki auditning xalqaro standartlarida aytilishicha, ichki auditor mustaqilligi bu unga qo'yilgan majburiyatlarni erkin va ob'ektiv bajarish hamda o'z fikrini xolisona bayon etish imkoniyatidir. Mustaqillikka ichki auditning o'ziga xos tashkiliy maqomi yordamida erishiladi. Bunda ichki audit xizmati rahbari auditor faoliyati mustaqilligini ta'minlovchi va auditorlik tavsiyalarining bajarilishi bo'yicha aynan bir xil choralarni belgilovchi shaxsga bevosita bo'ysunishi kerak. Ob'ektivlik esa auditorning o'z ishini halol va vijdonan bajarish hamda audit tekshiruvidan ko'zlangan maqsadni aniq amalga oshirish qobiliyatidir.

“Mustaqillik” va “Ob'ektivlik” tushunchalari ma'no jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, birinchisi, tashkiliy ma'noda, ikkinchisi esa ichki auditorning professional sifatidir. Har ikkala tushuncha o'zaro bog'liq, chunki ichki audit xizmatining mustaqillik darajasi ichki auditorlarning ob'ektivligiga ancha ta'sir ko'rsatadi.

Ichki auditorlarning ob'ektivligi darajasi, albatta, ularning professional tayyorgarligiga bog'liq. Auditorlar zarur bilim va mahoratga ega bo'lishlari, shuningdek o'z fikrlarini himoya qila bilishlari, muammoning mohiyatini aniqlay

olishlari kerak. Bunday sifatlarning bo'lmashligi esa auditorlarning o'z ob'ektivligini saqlay olmasligiga olib keladi. Bu narsa quyidagi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin:

- ba'zi-bir tavakkalchilik asosida qilinadigan ishlar yoki muammolar aniqlanmay qolishi yoki ularga etarli darajada e'tibor qaratilmasligi;

- ichki auditorga yuqori malakali mutaxassis sifatida qaramaslik.

Fikrimizcha, bunday muammolarning oldini olish uchun ichki audit xizmati xodimlari biz yuqorida ta'kidlab o'tgan va bilishi lozim bo'lgan bilimlardan tashqari yana quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

- a) huquq, moliya, iqtisod yoki auditorlik bilimiga;

- b) korxonada boshqaruviga oid bilimga;

- v) menejerlik ishi bo'yicha tajribaga;

- g) turli soha (ishlab chiqarish, marketing, savdo-sotiq, axborot texnologiyalari va boshqalar) bo'yicha bilimlarga.

Auditor qanchalik puxta bilimga ega bo'lishidan qat'i nazar, ichki audit xizmatiga bevosita bog'liq bo'lmagan sohada konsalting xizmatlari ko'rsatayotganda ehtiyotkor bo'lishi kerak. Bunday vaziyatda ham ichki auditorning ob'ektivligi masalasi yuzaga keladi. Aksariyat xorijiy mamlakatlarda ichki auditor uchun kompaniya doirasida ichki auditdan tashqari boshqa faoliyat yuritishi qonun bilan taqiqlanganligi ham bejiz emas.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subektlarda ichki auditni tashkil qilish uchun ichki audit xizmati xodimlari puxta bilimga ega bo'lish, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqur tushunib etishdan tashqari yana quyidagi asosiy talablarga javob berishlari kerak:

- auditorning malaka sertifikatiga;

- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida yoxud O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga tengligi e'tirof etilgan xorijiy davlat muassasasida olingan oliy ma'lumotga, oxirgi

o'n yilning kamida ikki yilida buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasidagi amaliy ish stajiga (shu jumladan, o'rindoshlik bo'yicha) ega bo'lish.

Ichki audit xizmati xodimlari xo'jalik yurituvchi sub'ektning Kuzatuv kengashi tomonidan har yili attestatsiyadan o'tkazilishi va muntazam ravishda ularning malakasini oshirib turilishi kerak.

Shu bilan birga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining samaradorligini ta'minlashda ichki audit xizmatining o'rnini nihoyatda katta ekanligiga shubha bo'lmasa-da, ichki auditni joriy etishda bir qator hal etilishi lozim bo'lgan masalalar mavjud. Bular jumlasiga: ichki audit tizimining ilmiy-metodik asoslarini shakllantirish; Xalqaro Ichki Auditorlik uyushmasi bilan yaqin hamkorlik qilish; ichki auditorlik standartlarini va ichki auditorlik odobini ishlab chiqish hamda uni amalda tatbiq etish kiradi. Bu esa mamlakatimizda joriy etilayotgan ichki audit tizimini takomillashtirish uchun katta turtki bo'ladi. Shunday qilib, ichki audit aktsiyadorlik jamiyatlari hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning boshqa tarkibiy tuzilmalari faoliyatida korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilinishini, buxgalteriya hisobi yuritish va moliyaviy hisobot tuzishni, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishini tartibga solib turadi. Bu esa barcha mavjud resurslardan oqilona foydalangan holda iqtisodiy samaradorlikka erishishni, mehnat qilayotgan jamoaning o'sib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirishni, shu bilan birga mamlakatimiz iqtisodiyotining tobora rivojlanib borishini ta'minlaydi.


III bob. Korporativ boshqaruv tizimidagi korxonalarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish

3.1. Korporativ boshqaruv tizimidagi korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish

Mamlakatimiz iqtisodiyotini xo'jalik yuritishning bozor tamoyillariga o'tishi, davlat mulkini xususiylashtirilishi, mulkchilik shakllarining o'zgarib borishi, respublika iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini keng jalb qilinishi, qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashib borishi, ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun buxgalteriya hisobi axborotlarining ahamiyatini sezilarli darajada oshirdi. Buxgalteriya hisobi faqat hisob yuritish va statistika vazifasini bajarib qolmasdan, balki manfaatdor tomonlarga tasarrufida mavjud bo'lgan barcha resurslardan qanday qilib yaxshiroq foydalanish to'g'risida xolis va har tomonlama asoslangan qaror qabul qilishi uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyati bo'yicha axborot yig'ish, uni qayta ishlash, tahlil etish va etkazib berish vositasiga aylandi.

Mulkchilikning turli shakllarining rivojlanishi, tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida bo'layotgan o'zgarishlar, ko'plab korxonalarni to'g'ridan-to'g'ri tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishi, erkin industrial-iqtisodiy xududlar yaratilishi va ularda boshqaruv hamda muvofiqlashtiruvchi organlarni shakllanishi, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar buxgalteriya hisobining ilg'or tajribasi, moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi, ular faoliyatini auditorlar tomonidan tekshirish usullari kabi savollarga qiziqish uyg'otmoqda.

Iqtisodiyotning hozirgi sharoitida boshqaruv hisobinining asosiy maqsadi va vazifasi, eng avvalo, korxonaning va uning tarkibiy bo'linmalarining ishlab chiqarish ehtiyojlariga e'tiborni qaratishi lozim.



4-chizma. Moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobi bo'yicha hisob axborotlari oqimining taqsimlanishi¹².

Bu holatda «xarajat-natija» nisbatini boshqarish bo'yicha yangi samarali tizim paydo bo'ladi, bu tizim ishlab-chiqarish – xo'jalik jarayonlarini

¹² Muallif tomonidan tuzilgan.

takomillashtirish maqsadlariga mos keladi. Bunday hisob-kitobni tashkil qilish, birinchi navbatda, korxonaning boshqarish ehtiyojlariga bo'ysunishi zarur. U moliyaviy natijani turli usullar bilan aniqlashga yordam beradi, ammo ularning barchasi deyarli bir xil natija beradi va faoliyatning sohaviy xususiyatlariga qaratilgan. Bunday usullar qatoriga quyidagilar kiradi:

- aktiv va passiv hisobvaraqlari bo'yicha qoldiqlarni solishtirish;
- moliyaviy hisobda xarajatlar asosida «xarajat-ishlab chiqarish» usuli bo'yicha;
- boshqaruv hisobida «xarajat-ishlab chiqarish» usuli bo'yicha xarajatlar moddalarini tarkibiy bo'linmalar (javobgarlik markazlari) bo'yicha ko'rib chiqish asosida;
- xarajatlarni ishlab chiqarish bilan taqqoslab, olingan natijalarni tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari o'zgarishiga to'g'rilash yo'li bilan.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyotining ob'ektiv qonunlari ta'siri asosida ishlab chiqarishni samarali boshqarish faqat boshqaruv hisobi tizimini qo'llagan holda amalga oshirish mumkin, chunki hisobning ushbu turi boshqaruv tizimining ehtiyojlariga o'z vaqtida va operativ holda javob beradi.

Boshqaruv hisobi korxonaning ichki manfaatlarini amalga oshirishga mo'ljallangan bo'lib uning afzal tomonlari ko'p.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi bilan ishlab chiqaruvchilar o'rtasida mahsulot, ish va xizmatlar bozorlari uchun raqobat oshmoqda, bu esa o'z navbatida takomillashgan hisob tizimini joriy etishni talab qiladi. Yangi tizim ma'lumotlari ichki va tashqi foydalanuvchilarining talablariga javob berishi kerak. Demak, barcha mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shaklda faoliyat yuritayotgan korxonalarining rahbarlari ma'lum bilimlarga ega bo'lishlari va uni amaliyotda qo'llashni bilishlari lozim.

Boshqaruv hisobini tashkil qilishning asosiy qoidalarini bilish har bir alohida holatda moliyaviy-ho'jalik va ishlab chiqarish-texnologik masalalarini to'g'ri va tez echishga imkoniyat beradi. Bizning fikrimizcha, har bir rahbar korxonaga

boshqaruvida rasmiy va ichki tahliliy-hisob ma'lumotlar bilan parallel tarzda o'z uslublariga, baholash tizimiga egalik qilish huquqini me'yoriy hujjatlar bilan belgilab qo'yishi lozim. Bunday ma'lumotning bir qismi tijorat siri sifatida bo'lishi va soliq yoki boshqa davlat organlari tomonidan tekshirilishi mumkin emas.

Hisob yuritishning xalqaro amaliyotida hisob tizimini tashkil qilishning ikki yo'nalishi shakllangani ma'lum.

Birinchisi – moliyaviy hisob, o'zida shunday ma'lumotlarni mujassam etadiki, korxonada boshqaruvida qaysidir jihatdan foydalanish mumkin, lekin ma'lumotlar bilan ta'minlamaydi, balki u tashqi foydalanuvchilarga, ya'ni davlat soliq organlari, bank, kreditorlar, aktsiyadorlar uchun mo'ljallangan bo'lib, u axborotlarni umumlashtirish va sintez qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Hisobning ushbu yo'nalishi an'anaviy hisob-kitob amaliyotini rivojlantiradi va umumlashtiradi, uning maqsadi – barcha tashqi foydalanuvchilar uchun tushunarli va shu bilan birga aniq ma'lumotni olish. Kamchilik tomoni shundaki, ma'lum bir turdagi mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur ma'lumotni zudlik bilan olish ko'p vaqt va mehnat talab qiladi.

Ikkinchi yo'nalish – o'zida shunday hisob ma'lumotlarini jamlaydiki, bu faqat korxonaning o'zida boshqaruv xodimlarining axborotga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash uchun zarur va kerak bo'lgan ma'lumotni etkazib beradi. Bu juda ko'p mehnat, aniqlik va tezkorlikni talab etadi. Boshqaruv hisobi ma'lumotlaridan foydalangan holda korxonada moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish, tahlil ishlarini amalga oshirishni ta'minlaydi, shu bilan birga rivojlanishning samarali yo'llarini belgilab, operativ tarzda boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ko'maklashadi.

3.2. Mamlakat iqtisodiyotini boshqarishda auditni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining jahon iqtisodiy in-tegratsiyasiga shiddat bilan qo'shila borishi, mamlakatimizda korporativ boshqaruvning rivojlanishi barcha sohada bo'lgani kabi auditorlik faoliyatida ham tub o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Shu boisdan, auditni xalqaro talablarga muvofiq takomillashtirish keyingi vaqtlarda O'zbekiston uchun tobora dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Chunki, bozor munosabatlarini jadallashtirishda respublikamizning jahon bozoriga yanada chuqurroq kirib borishi iqtisodiy islohotlarni rivojlantirishni, iqtisodiy munosabatlarni yanada kengroq amalga oshirish uchun auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish muhimdir. Bu borada auditorlik faoliyatining milliy standartlari ishlab chiqildi va ular amaliyotda o'z samarasini berib kelmoqda.

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida auditorlik faoliyatini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ – 615-sonli «Auditorlik tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun ularning javobgarligini oshirish to'g'risida»gi Qarori va uning ijrosini ta'minlash maqsadida 2007 yil 17 sentyabrda qabul qilingan “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni alohida ahamiyat kasb etadi.

Auditorlik faoliyati quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- auditorlik tekshiruvi o'tkaziladigan shaxslardan, shuningdek barcha uchinchi shaxslardan mustaqillik;
- auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda haqqoniylik;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazayotgan auditorlik tashkilotlari mustaqil ravishda ishlash usullari va metodlarini tanlashi;

– auditorlik tekshiruvini amalga oshirayotgan shaxslarning professional kompetentligi;

– auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda olingan axborotlarning maxfiyligi.

Yuqoridagi tamoyillar asosida «Auditorlik tashkilotlari to'g'risida»gi Nizomga muvofiq auditorlik tashkilotlari ustav fondini shakllantirish va tashkil etish bo'yicha quyidagilar belgilangan, jumladan:

– faqat tashabbus tarzdagi auditorlik tekshiruvini amalga oshirsa eng kam oylik ish hakining 1500 baravari miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitali va shtatida kamida 2 nafar auditorlariga ega bo'lishi;

– aktsiyadorlik jamiyatlari, banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashabbus tarzdagi hamda majburiy auditorlik tekshiruvini amalga oshirsa eng kam oylik ish haqining 3000 baravari miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitali va shtatida kamida 4 nafar auditorlariga, ularning bittasi xalqaro buxgalter sertifikatiga (CAP/CIPA) ega bo'lishi;

– barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning auditorlik tekshiruvini amalga oshirsa eng kam oylik ish haqining 5000 baravari miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitali va shtatida kamida 6 nafar auditorlariga, ularning ikkitasi xalqaro buxgalter sertifikatiga (CAP/CIPA) ega bo'lishi shartligi belgilandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, auditorlik tashkiloti Moliya vazirligi tomonidan auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya (ruxsatnoma)ni tegishli turini olish maqsadida yuqorida keltirilgan Nizom talablariga muvofiq ravishda hujjatlarni taqdim etishi mumkin.

5.-jadval

O'zbekiston Respublikasida majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkaziladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar to'g'risida ma'lumot¹³ (01.01.2016 yil holatiga)

№	Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkaziladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ro'yxati	Soni
1.	Banklar va boshqa kredit muassasalari	38
2.	Aktsiyadorlik jamiyatlari	744
3.	Sug'urta tashkilotlari	27
4.	Investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning boshqaruv kompaniyalari	23
5.	Manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar	38
6.	Mablag'larining hosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va Jismoniy shaxslar tomonidai qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish byudjetdan tashqari fondlar	7
7.	Ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan ma'suliyati cheklangan jamiyatlar (AJdan tashqari)	493
	Respublika bo'yicha jami	1370

Auditorlik tekshiruvlarini nazorat qilish va auditorlik faoliyati yurituvchi sub'ektlarga litsenziya berish Moliya vazirligining «Buxgalteriya hisobi va audit metodologiyasi Bosh boshqarmasi» tomonidan amalga oshirilmoqda.

Hayot rivojlanishdan to'xtab qolmaganidek, auditorlik faoliyatining rivojlanishi ham davom etmoqda. Bu o'z-o'zidan bo'lavermaydi, albatta. Buning uchun ma'lum bir qonunlarga, qarorlarga o'zgartirish kiritilishi lozimki, ular kichik biznes asosida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar, xo'jalik yurituvchi

¹³ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

sub'ektlarga o'z kapitalini ko'paytirishda ijobiy samarasini bersin. Bu o'z navbatida aholini moddiy farovonligini yanada oshirishga ham xizmat qilsin.

Shuning uchun ham, mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar va sifat o'zgarishlar auditorlik faoliyatiga quyidagi vazifalarni qo'shimcha qilib yuklatilishi ushbu faoliyatni yanada takomillashtirilishiga sabab bo'ladi:

– mamlakatda faoliyat yuritayotgan barcha auditorlik tashkilotlari va undagi auditorlar, auditor assistentlari, bundan tashqari, yakka tartibda yollanib ishlayotgan va buxgalteriya xizmati ko'rsatayotgan professional buxgalter va auditorlar ustidan nazorat qilish maqsadida yilda bir marta ulardan axborot olib turishni ta'minlash (besh yilda bir marta litsenziya berish uchun chaqiruvdan tashqari) dagi nazoratni amalga oshirish;

– mamlakatda faoliyat yuritayotgan barcha auditorlik tashkilotlari va undagi auditorlar, auditor assistentlari, bundan tashqari, yakka tartibda yollanib ishlayotgan va buxgalteriya xizmati ko'rsatayotgan professional buxgalter va auditorlarning doimiy ravishda malakasini oshirib borishi hamda o'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvlari sifatining yuqoriligini ta'minlash maqsadida o'quv-metodik markazlar (oliy o'quv yurtlari va akademiyalarda maxsus fan bo'yicha)da bevosita qatnashuvchi (xoh tinglovchi, xoh ta'lim beruvchi sifatida) bo'lishini majburiy qilib qo'yish;

– mamlakatda faoliyat yuritayotgan barcha auditorlik tashkilotlari va undagi auditorlar, auditor assistentlari, bundan tashqari, yakka tartibda yollanib ishlayotgan va buxgalteriya xizmati ko'rsatayotgan professional buxgalter va auditorlarning o'tkazayotgan auditorlik tekshiruvlari sifatining yuqoriligini ta'minlashda doimo xalqaro internet tarmog'idan foydalanish orqali kundalik maxsus iqtisodiy bilimlardan xabardor bo'lishi, maxsus iqtisodiy jurnallardagi yangiliklardan voqif bo'lishi lozimligini majburiy qilib qo'yish;

– mamlakatda faoliyat yuritayotgan barcha auditorlik tashkilotlari va undagi auditorlar, auditor assistentlari, bundan tashqari, yakka tartibda yollanib

ishlayotgan va buxgalteriya xizmati ko'rsatayotgan professional buxgalter va auditorlarning doimo xalqaro va mamlakat ichida o'tkazilayotgan konferentsiyalarda amaliyotda uchrayotgan muammolar yuzasidan o'z tezis va maqolalari bilan qatnashishini majburiy qilib qo'yish va hokazolar.

Bizning fikrimizcha, auditorlik faoliyati amaliyotida uchrayotgan ayrim muammolarni hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi qoshida maxsus guruh tashkil qilish lozimki, uning ish faoliyati ushbu muammolarni hal qilish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat bo'lgan takliflarni amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi orqali Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga, normativ hujjatlarni takomillashtirish masalalari bo'yicha esa mamlakat hukumatiga yuborishdan iborat bo'lsin.

XULOSA

Korporativ boshqaruv shaklidagi korxonalarda buxgalteriya hisobi va audit masalalariga oid iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari, xo'jalik amaliyotini tanqidiy nuqtai nazardan o'rganish, ularni tahlil etish hamda muallifning ko'p yillik ilmiy tadqiqotlari korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilashga doir quyidagi ilmiy xulosalarni chiqarish va amaliy takliflarni bildirish imkoniyatini berdi:

1. Iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil iqtisodiy islohotlar natijasi o'laroq, mulkchilikning turli shakllaridan qat'i nazar, jamiyatning rivojlanishi, xo'jalik aloqalarining kengayishi va undagi sifat o'zgarishlar iqtisodiyotni samarali boshqarish oldiga yuqori talablarni qo'ymoqda. Shu munosabat bilan mamlakat iqtisodiyotida boshqaruv tizimi, shu jumladan xo'jalik boshqaruv tizimiining mohiyati keng ochib berildi va uning funktsiyalariga aniqlik kiritildi.

2. Korporativ boshqaruv tizimini joriy etish va tartibga solishga oid xorij va vatanimiz olimlari hamda xalqaro tashkilotlarning qarashlari umumlashtirilgan holda oshkora boshqaruvning mazkur tushunchasiga uning mazmunini to'liq ifodalovchi takomillashgan muallif ta'rifi berildi.

Korporativ boshqaruv – bu shunday tizimki, u orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektga rahbarlik qilish, rivojlanishning iqtisodiy va ijtimoiy resurslarini boshqarish, mulkdorlar hamda investorlar sarmoyalarini boshqarishning samarali va xavfsiz bo'lishini ta'minlash, manfaatdor tomonlarning qiziqishlarini aniqlash, bir-biriga moslashtirish, olinadigan daromadlarni ularning hissasiga monand taqsimlash uchun mo'ljallangan tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy tadbirlar amalga oshiriladi.

3. Izlanishlar jarayonida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish hamda uni yuritishning amaliyotdagi holati tegishli qonunlarning moddama-modda ijrosining bajarilishi o'rganilganda qator kamchilik va muammolar mavjud ekanligi aniqlandi. Bunday salbiy holatlar, ya'ni qonun va normativ hujjatlarning

buzilishi yoki unga rioya etilmasligi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tanglikka olib kelish bilan birga boshqa qonunlar va qonun osti hujjatlarning ham buzilishiga olib kelishi aniq dalillar bilan asoslab berildi. Mazkur qonunlarning buzilishi holatlari bo'yicha javobgarlikni kuchaytirish, aniqlangan xatolarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berildi.

4. Auditorlik tashkilotlari va ularning faoliyatini amaliyotdagi holati qonun moddalari asosida tahlil qilinganda bir qator muammolar mavjudligini ko'rish mumkin. Amalda uchrayotgan ayrim muammolarni hal qilish maqsadida mamlakatda auditorlik faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, malaka oshirish va malaka imtihonlarini qabul qiluvchi hamda attestatsiyadan o'tkazuvchi, shuningdek auditorlarning huquqlarini himoya qilish va auditorlik tekshiruvni sifatini monitoringini amalga oshiruvchi, milliy standartlar talablari va auditorlar ahloq kodeksiga rioya qilishini ta'minlovchi shu bilan birga ushbu muammolarni bartaraf etishdan iborat bo'lgan takliflarni amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish lozim ekanligi tavsiya etildi.

Yuqorida ta'kidlanganlar bo'yicha xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa normativ hujjatlarni o'z vaqtida amaliyotga tatbiq etish hamda ularni ijrosini to'liq ta'minlash, buxgalteriya hisobi, hisoboti va auditorlik faoliyatida amalda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish hamda ularni davr talabiga javob beradigan tarzda takomillashtirishga erishiladi. Bu esa, o'z navbatida, xalq farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan tub islohotlarni uzluksiz davom ettirishda va mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон, 2014.
2. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. – Т.: Адолат, 2008.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни - Тошкент 2016 й. 13 апрель.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонуни (янги таҳрири) 2000 й. 26 май.
5. “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни, 2014 йил 6 май.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 27 сентябрдаги “Қимматли қоғозлар бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–475-сонли Қарори;
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 4 апрелдаги ”Аудиторлик ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш ҳамда улар кўрсатаётган хизматлар сифати учун жавобгарликни ошириш тўғрисида”ги ПҚ–615-сонли Қарори;
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 2 июлдаги ”Аудиторлик ташкилотларининг молиявий барқарорлигини ошириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–907-сонли Қарори.
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 22 сентябрдаги «Аудиторлик фаолиятини такомиллаштириш ва аудиторлик текширишларнинг аҳамиятини ошириш тўғрисида»ги 365-сонли қарори.-Т.: «Халқ сўзи», 2000 й, 26 сентябрь.
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2006 йил 16 октябрдаги “Устав фондида давлат улуши бўлган корхоналарнинг самарали

бошқарилишини ва давлат мулкани зарур даражада ҳисобга олинишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 215-сонли Қарори;

11. Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлиги томонидан тасдиқланган «Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари» 1998-2008 йиллар.

12. Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлиги томонидан тасдиқланган «Аудиторлик фаолиятининг миллий стандартлари» 1998-2006 йиллар.

13. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”. -Т.: «O‘zbekiston», 2011. 56 bet.

14. Karimov I.A. “2014-yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi” -Т.: "O‘zbekiston", 2014. 64 b.

15. Каримов И.А. “2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир” Т.: “Ўзбекистон” 2015 й. 72 бет.

16. Каримов И.А. “Бош мақсадимиз – иқтисодиётимизда олиб бораётган ислохотларни ва таркибий ўзгаришларни кескин чуқурлаштириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тадбиркорликка янада кенг йўл очиб беришдир” Т.: “Ўзбекистон” 2016 й., 88 бет.

Дарслик ва ўқув адабиётлари:

17. Азизов Ш., Юлдашева С. Международный аудит. Учебное пособие Т.:Иктисод-Молия, 2013 г. 276 с.

18. Аренс А., Лоббек Д.Ж. Аудит. Пер. с англ. под. ред. проф. Я.В. Соколова, - М.: Финансы и статистика, 1995.

19. Барышников Н.П. Организация и методика проведение общего аудита. Москва - 1998.

20. Бухгалтерлар учун амалий кўлланма. (икки жилдлик)Т.: “Норма” 2010 й.
21. Годовой отчет -2014. Электронная справочная система ,“ Норма”.
22. Молиявий ҳисоб-2. КАРАНА корпорацияси – 2008.
23. Молиявий ҳисоб-2. Очилов И.К., Азларов Д.Х., Авлоқулов А.З. Ўқув кўлланма. -Т.: ТМИ, 2003. Б.326.
24. Белоцерковский В.И. Бухгалтерский учет и аудит в коммерческом банке. Учебное пособие. - М.:“Экономика”, 2005. - 294 с.
25. Бочкарева И.И. Бухгалтерский учет. Учебное пособие. –М.: Проспект, 2006. 776 стр.
26. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари асосида банкларда бухгалтерия ҳисоби. Ўқув кўлланма. Ҳаммуаллиф – Т.: “МОЛИЯ”, 2010 – 272 б.
27. Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари. Таржима. А. Ризақулов, Б.Хасанов, А.Усанов, З.Маматов. Т.: - 2004.
28. Дўсмуратов Р.Д, Мамадияров Д.У. Бошқарув ҳисоби./Дарслик. -Т.: Шарқ 2008. -174 б.
29. Иброҳимов А.К., Очилов И.К., Кўзиёв И.Н., Ризаев Н.Қ. Молиявий ва бошқарув ҳисоби. - Т.: “ИҚТИСОД –МОЛИЯ”, 2008. - Б. 444.
30. Каримов А.А. ва бошқалар. Бухгалтерия ҳисоби./Дарслик. -Т.: Шарқ 2004. -592 б.
31. Пардаев А.Х, Пардаев Б.Х. Бошқарув ҳисоби. Ўқув кўлланма. Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2008. - 251 б.
32. Сотиволдиев А.А. Замонавий бухгалтерия ҳисоби. 3т. / Дарслик.- Т. 2004. -505 б.
33. Дўсмуратов Р.Д. Аудит асослари. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2003.-612 б.
34. Емельянов А.М. Общий аудит. -М.: Финансы и статистика, 1997.

35. Жарыгласова Б.Т. Международные стандарты аудита. Учебное пособие. - М.: НОРУС, 2005. - 400 стр.

36. Ибрагимов А., Очилов И., Қўзиёв И., Ризаев Н. Молиявий ва бошқарув ҳисоби. Т.: Иқтисод-молия нашриёти, 2008.-444 б

37. Каримов А.А. ва бошқалар. Бухгалтерия ҳисоби. /Дарслик -Т.: Шарқ, 2004.-592 б.

38. Ғуломова Ф. Бухгалтерия ҳисобини мустақил ўрганувчилар учун қўлланма. –Т.: “Норма” нашриёти, 2012. –496 б.

39. Санаев Н. С. Фермер хўжаликларида бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари.-Тошкент: «Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси», 2006.-145б.

40. Дўстмуродов Р., Машарипов О. Фермер хўжалигида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини ташкил этиш. Ўқув қўлланма-Тошкент, 2007.- 94 б.

41. Камышанов П.И. Современная бухгалтерия и аудит на предприятиях и в банках-М.: 2000.-380 с.

42. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Xalqaro audit. Darslik. –Т. Iqtisod-Moliya, 2015 у. 542 б.

43. Masharipov O, Ixomov SH. Amaliy audit. O`quv qo`llanma –Т. Cho`lpon, 2014 у. 264 б.

44. Meliev I., Kushmatov O., va b. audit. O`quv qo`llanma –Т. Iqtisod-Moliya, 2015 у. 283 б.

45. Fayziyev Sh., Dustmuradov R. va b. Audit. Darslik. –Т. Iqtisod-Moliya, 2015 у. 536 б.

46. Файзиёв Ш., Шаякубов Ш. и др. Аудит. Учебное пособие. –Т.:Иқтисод-Молия 2015г. 288 с.

ИНТЕРНЕТ САЙТЛАРИ:

<http://www.mf.uz> (Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги).

www.ziyonet.uz

www.tfi.uz

www.lex.uz

<http://www.mf.uz>

<http://www.norma.uz>

<http://www.buh.ru/>

<http://www.soliq.uz>

www.gaap.ru

www.accountingreforms.ru